O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI

TARBIYA

1-SINF
UCHUN O‘QUV-METODIK QO‘LLANMA

ZAMIN NASHR
Toshkent – 2020

@ talim_obrazovaniye

UO‘K 17(075.2)
KBK 87.7ya71
Z 31

Mualliflar jamoasi:
Zamonov Zokir, Ismatova Nargiza, Xolmuxamedova Nilufar.

Mas’ul muharrir:
D. Kenjayev – tarix fanlari nomzodi.

Taqrizchilar:
Z. Jabborova – Respublika ta’lim markazi “Ijtimoiy fanlar” bo‘limi metodisti;
A. Muxsiyeva – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent;
N. Xalilova – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent;
F. Karimova – Chilonzor tumani 281-maktab o‘qituvchisi

Mazkur metodik qo‘llanma umumiy o‘rta ta’lim maktablari 1-sinf o‘qituvchilariga “Tarbiya” fanini ilg‘or pedagogik texnologiyalar, innovatsion metodikalar asosida yanada takomillashtirish, ularning yuksak pedagogik mahoratlarini namoyon qilish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Qo‘llanma darsni samarali rejalashtirish va loyihalashtirish, o‘quv maqsadlarini belgilash, mashg‘ulotni interfaol metodlar yordamida tashkil qilishga doir metodik ko‘rsatma sanaladi.

Mazkur metodik qo‘llanma Respublika ta’lim markazi Ilmiy metodik kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan

ISBN 978-9943-6567-7-2

© Z. Zamonov va boshqalar. 2020.
© “Zamin Nashr” MCHJ, 2020.

SO‘ZBOSHI

Muhtaram ustozlar! Oldingizda “Tarbiya” kitobi hamda qarshingizda samimiyat va fidoyilikka asoslangan tarbiyangizga muntazir turgan murg‘ak qalb sohib-u sohibalari.

Sizning yuksak mahoratingiz, chiroyli sabringiz, metin iroDangiz tufayli bu fitrati pok, tiynati sof, orzulari beg‘uborlikka limmo-lim sirli saltanat egalari kelgusida muqaddas Vatani, bag‘rikeng xalqi, qadrdon mahallasi, mehribon ota-onasiga nisbatan munosib farzand bo‘lib yetishadi! Shubha yo‘qki, bunday o‘ta mas’uliyatli va sharafli vazifani o‘z maqomingizda maromiga yetkazib uddalashga Siz qodirsiz!

Tan olib aytish kerak, bugungi jadal globallashuv, innovatsion taraqqiyot sharoitida dunyo hamjamiyati sahnida raqobatbardosh mamlakatga aylanayotgan, yangilanayotgan O‘zbekiston davlati va jamiyati oldiga qator milliy va umuminsoniy vazifalarni yuklamoqda. Bu ijtimoiy hayotimizning barcha jabhalarida izchil amalga oshirilayotgan islohotlar singari, ta’lim-tarbiya borasiga ham bevosita tegishlidir.

Ushbulardan biri, shubhasiz, muhtaram Prezidentimizning bevosita tashabbuskorligida davr talabiga javob beradigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi ta’minlangan, xalqaro tajriba va interfaol uslublardan unumli foydalanilgan Tarbiya fanining yaratilishi hamda undagi go‘zal insoniy fazilatlar, chuqur foydali bilimlarni yosh avlodga o‘qitish va uqtirishdir.

Bundan ko‘zda tutilgan asosiy maqsad – yangi davrning mard va jasur, adolatli va sadoqatli, mehrli va oqibatli, hayoli va oriyatli,

@ talim_obrazovaniye

vatanparvar, ezgu maslagida qati'yatli, mustahkam e'tiqodga ega bo'lgan barkamol avlodni voyaga yetkazish sanaladi.

Bunda Sizdan yosh avlod ong-u shuurida:

- mustaqil va erkin fikrlashni hamda ularning yashirin salohiyatini yuzaga chiqarish;
- muvaffaqiyatli ijtimoiy hayotga tayyorlash;
- faol fuqarolik pozitsiyalarini mustahkamlash;
- burch va mas'uliyat, huquqiy ong va huquqiy madaniyat, teran dunyoqarash, mustahkam ezgu e'tiqod, ma'rifatparvarlik, bag'rikenglik singari go'zal fazilatlarni shakllantirish talab etiladi.

Shu bilan birga, o'quvchilar o'rtasida kuzatilayotgan ayrim salbiy holatlarning asl sabablarini aniqlash va oldini olishdagi ishlar samaradorligini oshirish ham nazarda tutiladi.

Bu borada Sizga darslikda keltirilgan innovatsion tarbiya texnologiyalari, odob va axloq, chuqur bilim, teran idrok va zukkolikni targ'ib etuvchi hayotiy, ta'sirchan mitti hikoya, rivoyat, maqol, hikmatlar, jozibador sehrli so'zlar hamda qisqa metrajli videoroliklar yordamchi vazifasini bajaradi.

Qadrli ustoz!

Mamlakatimiz umumta'lim maktablarida odob-axloq borasida yagona Tarbiya fanining joriy etilishi – barkamol avlod, vatanparvar fuqaroni shakllantirishning asosiy sharti hisoblanadi. Aksincha, bunday tizimga ega bo'lmagan jamiyatda zo'ravonlik, axloqsizlik, razolat ildiz otadi. Va, oxir-oqibat, bu jamiyat tarbiyasizlik, tubanlik botqog'iga botadi.

Jonajon O‘zbekistonimizning yuqoridagi ikki holatdan qay biriga mansub bo‘lishi ko‘pgina omillar qatorida Siz mo‘tabar insonlarning o‘z maqomingizdagi mas’uliyatingizga bevosita bog‘liq. Shunday ekan, ayni paytda, ertamiz davomchilari bo‘lgan murg‘ak qalblar ma’naviy “ozuqa”ga muhtoj, ong-u tafakkuri pokiza taom xohlamoqda. Ularning istagini bajarish, siz-u bizning zimmamizda. Bu vazifani vijdonan bajarish esa ham farz, ham qarzdir...

Aziz o‘qituvchi! Mazkur o‘quv-metodik qo‘llanma 1-sinf “Tarbiya” darsligi asosida tayyorlandi.

Tarbiya fanini samarali o‘qitishning turli innovatsion metodlari o‘quvchilarni mustaqil faoliyati, erkin va tanqidiy fikrlashi, o‘z fikrini ravon ifoda etishiga zamin yaratishi juda muhim. Tavsiya etilgan metodikani kreativ qabul qilish, fan-texnika imkoniyatlari bilan uyg‘unlashtirish Sizning boy tajribangiz va ijodiy mahoratingizga bog‘liq. Qo‘llanmada taqdim etilgan mavzularga aloqador mediamahsulotlar, qo‘shimcha ma’lumotlar o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni yanada mustahkamlanishiga xizmat qilishiga ishonamiz.

Tarbiya fanini yuksak pedagogik mahorat, innovatsion loyiha sifatida farzandlarimizga yetkazishingizda Sizga omad yor bo‘lsin!

Mualliflar jamoasi

1-BOB.
TARBIYA FANINI O‘QITISHDA INNOVATSION TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Ta’lim maqsadlari o‘quvchini faqat tayyor bilimlarni o‘zlashtirib olishga emas, aksincha, bola bilimni qidirib topishiga erishish, o‘z xulosasini chiqara olishga o‘rgatish, tanqidiy munosabat bildira olishiga erishish bugungi kunda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning bosh maqsadiga aylanmoqda.

Ayniqsa, boshlang‘ich ta’limda darsning noan’anaviy tarzda tashkil qilinishi o‘qituvchi va o‘quvchining samimiy munosabati, kichik guruh a’zolarining faolligi, jamoa bo‘lib ishlashga o‘rgatish, bolada guruh ishtirokchisi sifatida tashabbuskorlik, aniq maqsadga intilish, ijodkorlik, o‘z fikrini bayon qilish madaniyati, bunyodkorlik sifatlarini shakllantiradi.

Bu jarayon, albatta, o‘qituvchidan darsni rejalashtirish va loyihalashtirish mahoratini, barcha o‘quvchilarning bir xil ishlashlariga erishish, kreativlik, kommunikativlik, tashkilotchilik qobiliyatlarini talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to‘g‘risida”gi va 2019-yil 2-fevraldagi “Axborot sohasi va ommaviy kommunikatsiyalarni yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmonlari,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4307-son va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son qarorlari hamda davlat va hukumat tomonidan qabul qilingan boshqa bir qator me’yoriy-huquqiy hujjatlar asosida umumta’lim maktablarida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni yanada kengaytirishga oid vazifalar belgilab berilgan.

Hozirda kompyuterni ta’limning texnik vositasi sifatida o‘quv jarayonida qo‘llash imkoniyati mavjud. U ta’limda hamkor hisoblanadi hamda ta’lim oluvchiga yordam ko‘rsatadi va shu bilan uni faol bo‘lishga rag‘batlantiradi.

Ikkinchidan, kompyuterning dasturlashuvchanligi va uning moslashuvchanligi o‘quv jarayonini individuallashtirishga yordam beradi.

Uchinchidan, kompyuter – o‘quv jarayonining mashq bosqichlarini nazorat qilishning eng samarali vositasi hisoblanadi.

To‘rtinchidan, kompyuter ta’limning intellektual va mantiqiy darajasini oshiradi.

Beshinchidan, kompyuter ta’lim jarayonida hisoblash, eksperiment, modellashtirish va boshqa eng yangi ilmiy usullarni qo‘llash imkonini beradi.

ELEKTRON DARSLIKLAR HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT

Zamonaviy kompyuter texnikasi erishgan yutuqlarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish, an'anaviy ta'lim erishgan barcha yutuqlarni o'zida aks ettirgan, uni yangi texnika, texnologiya yutuqlari bilan to'ldirgan vosita bilan ta'minlash bugungi kunda juda ham dolzarb masaladir. Bugungi kunda ta'limning individualligini ta'minlash, ta'lim oluvchiga vaqt va fazo jihatidan qulaylik yaratuvchi vositalardan biri bu elektron kitoblardir. Ta'lim berishning mazkur vositasi mustaqil ta'lim olishga, ta'lim oluvchilarning bilim faoliyatini shakllantiruvchi asosiy element hisoblanadi.

Yosh avlodga zamonaviy bilimlar berish, kasb-hunar o'rgatish, iqtidori, qobiliyati va intellektual salohiyatini o'stirish uchun zarur bo'lgan barcha imkoniyatlarni yaratish, ayni paytda ularni umuminsoniy va milliy qadriyatlar, ezgu fazilatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash masalasi davlatning doimiy e'tiboriga olindi.

Umumta'lim maktablari davlat ta'lim standartlarining takomillashuvi, o'quv dasturlarining optimallashuvi hamda darsliklarning yangi avlodining yaratilishi bilan bir qatorda umumta'lim maktablari uchun elektron axborot ta'lim resurslari yaratildi.

"TARBIYA" FANIDAN YARATILGAN ELEKTRON AXBOROT TA'LIM RESURSI

– Tarbiya darsligi elektron versiyasi asosida tayyorlangan;

– o'quv-metodik maqsadlarga erishish uchun fanning mazmunini to'liq yoritishga xizmat qilish

darajasidagi hajmga, ko‘rgazmali elementlarga ega;

– materialni monitor ekranidan ko‘rish va tarmoq bo‘ylab joylashtirish imkoniyati mavjud;

– katta hajmdagi o‘quv materialini qayta ishlash, ularni WEB manbalariga va boshqa axborot tashuvchilarga o‘tkazish imkoniyati mavjud;

– ko‘rgazmalilik darajasining yuqoriligi, interaktiv topshiriqlar, o‘z-o‘zini baholash va nazorat qilish, mustaqil ishlash imkoniyati taqdim etilgan;

– ko‘rgazmalilik darajasining yuqoriligi, mashqlar orqali bilimlarni to‘ldirish va mustahkamlash;

– Davlat ta’lim standarti talablarini o‘zlashtirishni nazorat qilish, mustahkamlash imkoniyati mavjud.

Elektron axborot ta’lim resursidan foydalanishdan oldin quyidagilar tavsiya etiladi:

Dars jarayonini tashkil qilish, o‘quvchilarni ikkita (va undan ko‘proq) guruhga bo‘lish, har bir guruh uchun topshiriqlar tayyorlash.

O‘quvchilarning bilim ko‘nikmalarini mustahkamlashga oid ijodiy faoliyat turlarini tashkil qilish.

Ta’limning muvaffaqiyati dars jarayonini to‘g‘ri rejalashtirish, tashkil etish va uni amalga oshirishga bog‘liqdir.

Bir so‘z bilan aytganda, ta’lim oluvchi ta’lim olishda o‘zlashtirish jarayonini mustaqil boshqaradi, o‘zlashtirilgan bilimlarni nazorat qilish esa o‘z navbatida internet tizimi orqali amalga oshiriladi.

O‘QITUVCHILAR FOYDALANISHLARI UCHUN QO‘SHIMCHA MEDIAMAHSULOTLAR

INTERNET SAYTLARI:

Hozirgi vaqtda Internet saytlaridan fanga oid kerakli ma’lumotlar topish mumkin. Quyida ayrim foydali ta’limiy saytlarning nomlari sanab o‘tilgan. Ushbu saytlardan darslarga tayyorgarlik ko‘rishda foydalanish mumkin.

- http://www.uzedu.uz – Xalq ta’limi vaziligining rasmiy sayti
- https://www.facebook.com/edurtm.uz/ – Xalq ta’limi vaziligi huzuridagi Respublika ta’lim markazi
- https://t.me/edurtm_uz – Respublika ta’lim markazining telegramdagi rasmiy sahifasi
- https://ziyouz.uz
- http://marifat.uz
- https://www.kitob.uz – Respublika bolalar kutubxonasi
- http://pedkutubxona.uz/home
- http://e-tarix.uz
- http://e-adabiyot.uz
- http://www.edunet.uz
- http:// www.ziyonet.uz
- http://www.eduportal.uz
- http://www.ug.ru – “Uchitelskaya gazeta”
- http://www.kidsbook.narod.ru – bolalar adabiyoti.

BADIIY KITOBLAR:

Hozirgi vaqtda quyidagi ibratli, axloqqa oid badiiy kitoblarni o‘z kutubxonangizdan va boshqa markaziy kutubxonalardan topish mumkin. Quyida ayrim foydali badiiy manbalarning nomlarini sanab o‘tdik. Ushbu manbalardan darslarga tayyorgarlik ko‘rishda foydalanish mumkin.

- Farzandnoma;
- Adolat – komillikka kalit;
- Ibratnoma;
- Donishmandlardan hikmatlar;
- 1001 hikmat;
- Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur va boshqalar.

O‘QITUVCHILAR UCHUN QO‘SHIMCHA MAVZULASHTIRILGAN VIDEOROLIKLAR:

Bugungi kunda respublika umumiy o‘rta ta’lim maktablarining texnik bazasi multfilm va turli mazmundagi mediamahsulotlarni zamonaviy televizor, videoproyektor, elektron doskalar orqali namoyish qilish imkoniyatiga ega. Quyida Tarbiya darsini tashkil qilishga oid yordamchi o‘quv vositalari tavsiya etiladi:

- “Buratino” multfilmidan lavha;
- “Senimi, shoshmay tur!” multfilmidan lavha;
- “Yalqovvoy” multfilmidan lavha;
- “Madagaskar 1” multfilmidan lavha va boshqalar.

Dars jarayonini tashkil etish

Ta’lim samaradorligiga bevosita va bilvosita ta’sir etuvchi omil bu Tarbiya fani o‘qituvchilarining pedagogik mahoratidir.

Ayrim hollarda o‘qituvchi o‘z fanining yuksak darajada bilsa-da, pedagogik mahoratining yetarli darajada emasligi natijasida kutilayotgan samaraga erishib bo‘lmaydi. Masalan, dars jarayonida pedagogik texnologiyalar va metodlardan uzluksiz va uzviy ravishda foydalanish, vaziyatni to‘g‘ri baholay olish va samarali usullardan foydalanish o‘qituvchining pedagogik mahoratiga bog‘liq. O‘qituvchida bilim bo‘lsa-yu, uni o‘quvchilarga yetkazib bera olmasa, unda pedagogik mahorat yetishmasa ko‘zlangan maqsadga erishib bo‘lmaydi. Yoki aksi o‘qituvchi pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish yo‘llarini bilsa-yu, ammo bilimi yetarli bo‘lmasa ham ko‘zlangan natijaga erishib bo‘lmaydi.

Bugungi kunda urf bo‘lgan ayrim innovatsion metodlar mamlakatimizning barcha hududlarida birdek natija bermaydi.

Har bir dars uchun alohida va tajribadan o‘tgan metodlardan foydalanish, yoki dars jarayoni davomida zarurat yuzaga kelgan vaqtda yangi metodlarni qo‘llay olish mahorati o‘qituvchining pedagoglik salohiyatini belgilab beradi. O‘qituvchilarimizning boshqa soha mutaxassislaridan ajratib turadigan farqi shundaki, ular tez o‘zgaruvchan insonlar, ya’ni bolalar bilan ishlaydilar. O‘smirlar, bolalarning kayfiyati tezlik bilan bir holatdan ikkinchi bir holatga o‘tishi mumkin. Avvalgi darsda olgan yaxshi bahosi

yoki eshitgan tanbehi, keyingi darsdagi kayfiyatga bevosita ta’sir etadi. Yoki bahor kunlarining tez isib ketishi, sinf xonasining harortining tushib ketishi ham o‘quvchining kayfiyatiga ta’sir qiladi. Ayniqsa dars soati 5-6 soatlarga qo‘yilgan bo‘lsa, bu darslarda o‘quvchilarning birinchi soatdagi ishtiyoqi ancha sust bo‘ladi. Shuning uchun ham o‘qituvchi dars jarayonining mohir muhandisi sifatida 45 minutli vaqtni nazorati ostiga olishi va bu vaqtdan unumli foydalanish, ya’ni o‘quvchilarga zarur bo‘lgan bilimlarni berishi va ularda hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishga erishishi kerak. Shu nuqtai nazardan olganda dars metodlarini tanlash jarayonida birinchi soatda qo‘l kelgan metod 6-soatda maqsadga muvofiq bo‘lmasligi mumkin. O‘qituvchi tomonidan bir necha marotaba takrorlangan va o‘zining samarasini bergan metodlarning jamlanmasi pedagogik texnologiyalarni tashkil qiladi.

Pedagogik texnologiya tushunchasini anglash uchun uni alohida ko‘rib chiqamiz.

Xo‘sh texnologiya o‘zi nima? kundalik hayotimizda “axborot texnologiyalari”, “yangi texnologiya”, “innovatsion texnologiya” kabi atamalarni ko‘p uchratamiz. Yangilikka, axborotga yoki innovatsiyaga nisbatan ishlatilayotgan “texnologiya” atamasi haqida qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

Texnologiya biror ishda, mahoratda, san’atda qo‘llaniladigan usullar va yo‘llar yig‘indisi. Ishlov berish, ahvolni o‘zgartirish san’ati, mahorati, qobiliyatlar va metodlar yig‘indisi. Shu o‘rinda barchaga tushunarli bo‘lish uchun bir misolni keltirib o‘tamiz. Mamlakatimiz hududining qaysi go‘shasiga bormang, sizni o‘zbekning asl taomi osh bilan siy-

laydilar. Osh (palov) deganda sabzi, piyoz, go‘sht, guruch, yog‘ turli ziravorlar va suv qo‘shib tayyorlanadigan ovqatni tushunamiz. E’tibor bersak, oshni tayyorlash texnologiyasi bir xil, qovuriladi, qaynatiladi va dimlanadi. Natijada “Osh” degan mahsulot tayyor bo‘ladi Endi uni tayyorlash usullariga e’tibor qilsak, kimdir oshni piyozini qizartiribroq qovursa, kimdir yengilgina qovuradi. Lekin qanday yondashilsa ham natijada “osh” qilinadi. Demak, texnologiya shunday tushunchaki, uni boshqalar tomonidan qo‘llash imkoniyati mavjud va olinadigan natija oldindan ma’lum. Metodlar esa ana shu natijani ta’minlaydigan vosita deb tushunsak ham bo‘ladi.



Shu o‘rinda pedagogik texnologiya deganda nimalar nazarda tutiladi. Shu haqida bir oz to‘xtalsak:

Pedagogik texnologiya – aniq ishlab chiqilgan va ilmiy loyihalashtirilgan bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan pedagogik harakatlar tizimi.

Pedagogik jarayonni amaliyotga rejali va bir maromda tatbiq etish tizimi.

Pedagogik texnologiya fan sifatida – pedagogikaning san'at, mahorat darajasidagi sohasini o'rganuvchi fan.

Pedagogik texnologiya – ta'limni rejalashtiradigan natijalariga erishish jarayoni va tafsiloti.

Pedagogik texnologiya – didaktik tizimning tarkibiy qismi.

Pedagogik texnologiyalar ma'lum bir konsepsiyaga tayanadi. Pedagogik texnologiyalar – o'quv-tarbiya jarayoni va uning qismlari bilan o'zaro bog'liq bo'ladi. Samaradorlik, ta'lim standartlarining bajarilishiga xizmat qiladi. Pedagogik texnologiyalarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri, uni boshqalar tomonidan qayta amalga oshirilishi mumkin bo'ladi.

Pedagogik texnologiyaning maqsadi quyidagilardan iborat:

– barkamol insonni shakllantirish va rivojlantirish;

– jamiyatda mustaqil erkin va hur fikrli shaxsning shakllanishiga xizmat qiladi;

– o'zining qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo'lgan insonlarni tarbiyalash;

– ta'lim-tarbiya jarayoni sifat-samaradorligini oshirishdir va h.k;

Pedagogik texnologiyaning tarkibi yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish, axborotlarni avloddan avlodga uzatish, mustaqil fikrlashga o'rgatish, bilim, ko'nikma, malakalarni o'rgatish va o'zlashtirilishiga erishish, turli metodikalarni qo'llash va takomillashtirishni o'z ichiga oladi.

Pedagogik texnologiyalar insonparvalik, demokratik, do‘stona muhit, o‘zaro hurmat, hamkorlik va g‘amxo‘rlik, qo‘llab-quvvatlash tamoyiliga amal qiladi.

Har bir fanning maqsad va vazifalariga mos bo‘lgan pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlarni qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Bu jarayonda asosan o‘qituvchi, o‘quvchi va ta’lim vositalari ishtirok etadi.

Pedagogik texnologiyalarning tarkibi:

– ehtiyojni aniqlash;

– maqsadga erishish yo‘llarini aniqlash;

– ta’lim-tarbiyaning rivojlantirish.

Pedagogik texnologiya va metodika

Pedagogik texnologiya – ta’lim shakllari, usullari, uslubiy tizimlari xususiy metodikalar ko‘rinishida hosil bo‘lgan bo‘lib, ular takomillashib borish jarayonida texnologiyaga o‘sib o‘tadi.

Metodika biror-bir ishni maqsadga muvofiq, o‘tkazish metodlari. Pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi – bu o‘qituvchi va o‘quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijada hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalariga bog‘liq.

O‘qitish jarayonida, maqsad bo‘yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo‘llaniladigan har bir ta’lim texnologiyasi o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil etishi zarur.

Dars natijasiga ko‘ra o‘qituvchining va o‘quvchining ijobiy natijaga erishishi jarayonining asosi hisoblanadi. Demak, pedagogik texnologiya oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Dars jarayonida foydalaniladigan Pedagogik texnologiyalarning asosiy tarkibiy elementlari

Pedagogik texnologiyalarning asosiy tarkibiy elementlari	O‘qituvchi faoliyatidagi asosiy jarayonlar	O‘quvchi faoliyatidagi asosiy jarayon
Ko‘rsatish, so‘zlash, mashq bajarish	So‘zlash, ko‘rsatish, vazifa topshirish	tinglash
Ehtiyojni aniqlash	O‘quvchilar bilimidagi bo‘shliqlarni aniqlash, bartaraf etish yo‘llarini izlash, yo‘naltirish	ko‘rish
maqsadga erishish yo‘llarini aniqlash (muammolar yechimini topish)	Do‘stona muhitni tashkil etish, huquqiy madaniyatni yukasaltirib borish	izlanish
Ta’lim-tarbiyani rivojlantirish	O‘quvchilardagi mavjud bilimlar asosida, yangilarini shakllantirish va ijtimoiy hayotga yo‘naltirish	Tahlil qilish
	Rahbarlik qilish	Mashq bajarish, amaliyotga tatbiq eta olish
	Nazoratni amalga oshirish	

Pedagogik texnologiyalarning qo‘llash bosqichlari

Bosqichlar	Amalga oshirish	Kutilayotgan natija
I - bosqich	O‘rganish	Esda saqlash
II - bosqich	Tushuntirib berish	O‘rganganlarini ayta bilish, isbotlash, himoya qila olish
III - bosqich	Tatbiq etish	Qoida qonuniyatlarni amaliyot bilan bog‘lay olish
IV - bosqich	Tahlil etish	Qiyoslash, taqqoslash, sababini aniqlash
V - bosqich	Sintez	Axborotni qayta ishlay olish
VI - bosqich	Baholay olish	Natijaga erishish

INNOVATSION FAOLIYATNING ASOSLARI

Hozirgi davr ta’lim taraqqiyoti yangi yo‘nalish innovatsion pedagogikani keltirib chiqardi. Pedagogik innovatsiyada “yangi” tushunchasi markaziy hisoblanib, pedagogik fanda – xususiy, shartli, mahalliy va subyektiv yangilikka qiziqish uyg‘otadi. Ilmiy yo‘nalishlarda yangilik va innovatsiya tushunchalari farqlanadi. Yangilik – bu vosita, yangi metod, metodika, texnologiya va boshqa.

“Innovatsiya” – bu ta’lim ma’lum bosqichlari bo‘yicha rivojlanadigan jarayon.

Innovatsion jarayonlar, ularning funksiyalari, rivojlanish qonuniyatlarining pedagogik asoslarini o‘rganish o‘quv jarayonini zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlari yutuqlari asosida, jahon standartlari darajasida tashkil etish imkonini beradi.

Innovatsion faoliyatni eng muhim masalalardan biri – o‘qituvchi shaxsi – novator, ijodkor, o‘z bilimlarini va malakasini muntazam oshirib boruvchi, ma’naviy yetuk, umuminsoniy va milliy madaniyatga ega, izlanuvchan bo‘lishi lozim.

Innovatsion faoliyat motivatsion, texnologik va refleksiyalik qismlardan tashkil topadi.

Innovatsion jarayonlar rivojlanish qonuniyatlarining pedagogik asoslarini o‘rganish o‘quv jarayonini zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlari yutuqlari asosida, jahon standartlari darajasida tashkil etish imkonini beradi

Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsiya jarayonining kechishini 4 ta asosiy qonuniyati farqlanadi:

Pedagogik innovatsiya muhitining ayovsiz bir sharoitda emasligi qonuni. Bunda pedagogik jarayon va hodisalar to‘g‘risidagi tasavvurlar buziladi, pedagogik ong buziladi, pedagogik yangilik baholanadi.

Nihoyat amalga oshirish qonuni. Nihoyat amalga oshirish qonuni yangilikning hayotiyligi bo‘lib, erta yo kech, stixiyali yoki ongli ravishda amalga oshadi.

Komillashtirish pedagogik innovatsiyaning davriy takrorlanish va qaytish qonuni.

Pedagogik innovatsiyaning davriyligi va qaytishi qonuni bo‘yicha yangilik, yangi sharoitlarda qayta tiklanadi.

Innovatsion pedagogik jarayonning muhim shartlari shaxsning o‘z-o‘zini boshqarishi va o‘zini-o‘zi safarbar qilishi hisoblanadi. Uning eng muhim yo‘nalishlaridan biri o‘quvchi, talaba, tinglovchilarning bilish faoliyatini rivojlantirishga yo‘naltiriladi. Bu faoliyat ishtirokchilarning ijtimoiy faolliklarini rivojlantiradi.

Ya’ni, an’anaviy ta’limda o‘quvchilarda ma’lum bilimlar hosil qilingan bo‘lsa, innovatsion faoliyat natijasiga ko‘ra ular olgan bilimlariga tayangan holda yangi bilimlarni hosil qilishlari hatto xulosalarni o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi. Shuningdek, tayyor ish joylarida mehnat qilishga emas, balki ish o‘rinlarini yaratish bo‘yicha ham ko‘nikmalarni shakllantiradi.

Pedagog bu jarayonga shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olish va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta’lim jarayonida talaba asosiy figuraga aylanadi.

Aynan shu jarayon o‘quvchilarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantiradi. Bu jarayonni tashkil etishda zamonaviy o‘qitish metodlari – interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarning o‘rni va roli benihoya kattadir. Bunda pedagogik texnologiya va pedagogik mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar talabalarni bilimli, yetuk malakaga ega bo‘lishlarini ta’minlaydi.

Ijobiy natijaga erishish uchun o‘qituvchi dars jarayonini avvaldan loyihalashtirib olishi kerak.

Bunda o‘qituvchi dars rejasini fanning xususiyatidan, fanning oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda shakllantiradi.

Dars rejasini shakllantirish uchun o‘qituvchi pedagogika, psixologiya, xususiy metodika, pedagogik va axborot texnologiyalardan xabardor bo‘lishi, shuningdek, samarali metodlardan foydalanishni bilishi zarur.

Zamonaviy pedagogik texnologiya o‘zining pedagogika va boshqa fan yutuqlari bilan bog‘liq xususiy nazariyasiga ega. U birinchi galda o‘quv-tarbiyaviy jarayonni ilmiy asosda qurishga yo‘naltirilgan; o‘qitishda axborot vositalaridan, didaktik materiallardan, faol metodlardan keng foydalanishga asoslangan o‘qituvchi va talabalarning birgalikdagi faoliyatiga zamin yaratadi.

Innovatsion pedagogika atamasi va unga xos bo‘lgan tadqiqotlar G‘arbiy Yevropa va AQShda (XX asrning 60-yillarida) paydo bo‘ldi. “Innovatsiya” – bu ta’lim, ma’lum bosqichlari bo‘yicha rivojlanadigan jarayon.

Ta’lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan kunga kuchayib bormoqda. Pedagog, jarayon asosida shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olish va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta’lim jarayonida o‘quvchi asosiy “figuraga” aylanadi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni

amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to‘liq foydalaniladi.

Dars jarayonini tashkil etishda o‘qituvchi vaziyatga qarab, o‘quvchilarning ehtiyojidan kelib chiqqan holda jarayonni boshqarib borishi zarur. Dars jarayonini tashkil etishda o‘qituvchi avvaldan birorta metoddan foydalanishni nazarda tutgan bo‘lsa-da, lekin tanlangan metod, samarasiz bo‘lishi mumkin. Bunday sharoitda o‘qituvchi zarur bo‘lgan metodlardan birini qo‘llashi kerak bo‘ladi.

O‘qituvchi dars jarayonida quyidagilarga e’tibor qaratishi zarur:

– o‘tiladigan mavzu yuzasidan o‘quvchilarning ehtiyojini, dunyoqarashini, tafakkurini aniqlashga yo‘naltirilgan savol berish;

– o‘quvchilarni mavzu bilan tanishtirish, maqsad va vazifalarni aniqlash;

– ijodiy faoliyat uchun tavsiya etilgan savol va topshiriqlarni ijtimoiy hayot bilan bog‘lash va o‘quvchilarni to‘g‘ri fikrlashga yo‘naltirish;

– mavzuni boshqa fanlar yordamida tushuntirishga harakat qilish, o‘quvchilarda mavjud bilimlardan foydalanish;

Darsni boshlash jarayonida o‘quvchilarda ko‘tarinki kayfiyat, ijodiy ruhlanish kuzatilsa dars jarayonining samaradorligi yuqori bo‘ladi. Bunda o‘qituvchining faoliyati aniq reja asosida, oldindan tayyorlangan holda bo‘lishi zarur. Demak, o‘qituvchi tomonidan dars davlat ta’lim standartlari asosida olib boriladi.

Hozirda ta’lim sohasining oldiga qo‘yilgan maqsadlardan biri ta’lim jarayonidagi sifat

ko‘rsatkichlarini yaxshilash, ya’ni jahon andozalariga mos, raqobatbardosh, yuqori saviyaga ega bo‘lgan mutaxassislar tayyorlashdir.

Ushbu murakkab muammolarning yechimini topib ularni amalda keng qo‘llash ta’lim tizimi xodimlari oldiga juda katta vazifalar belgilaydi.

Bunda aniq vazifalar sifatida bevosita o‘quv jarayonini yaxshilash, o‘quv dasturlarini yanada takomillashtirish, o‘qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalarini amalga joriy qilish, texnik vositalaridan keng foydalanish va shu asosda masofadan o‘qitishni keng joriy qilishdan iboratdir.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim. Bu ta’lim o‘z mohiyatiga ko‘ra ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to‘laqonli rivojlanishlarini ko‘zda tutadi. Bu esa ta’limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma’lum bir ta’lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, ijtimoiy hayotdagi faoliyati bilan bog‘liq holda yondashilishni nazarda tutadi.

Tizimli yondashuv. Ta’lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o‘zida mujassam etishi kerak: jaryonning mantiqiyligi, uning barcha bo‘g‘inlarini o‘zaro bog‘langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta’lim oluvchining faoliyatni faollashtirishga va samaradorligini oshirishga, ta’lim-tarbiya jaryonida o‘quvchining barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo‘naltirilgan ta’limni ifodalaydi.

Dialogik yondashuv. Bu yondashuv ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarning psixologik birligi va o‘zaro munosabatlarini yaratish

zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o‘z-o‘zini faollashtirishi va o‘z-o‘zini ko‘rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta’limni tashkil etish. Demokratlilik, tenglik, ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi o‘rtasidagi subyektiv munosabatlarda hamkorlikni, maqsad va faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e’tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Tarbiya fanini o‘qitish metodlari: og‘zaki bayon; hikoya, monolog, dialog, suhbat, keys va b.

Mazkur fanni o‘qitishda ma’naviy manbalar bilan ishlash metodi muhim omil hisoblanadi. Mazkur metodni amalga oshirishda tarixiy va badiiy adabiyotlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, Imom Buxoriy “Sahih Hadis”, Alisher Navoiyning “Hikmatlari”, Obiddin Mahmudovning “Farzandnoma”, Abdulla Avloniy, Behbudiy kabi jadid bobolarning ilmiy va ma’naviy merosi, shuningdek, umume’tirof etgan hikmatlar va b. Bu kabi manbalardan tarbiya darslarida foydalanishda o‘quvchilarning psixologik yosh xususiyatlarini hisobga olish muhimdir.

Ko‘rgazmali metodlar: shartli-grafik illyustrativ ko‘rgazmalilik, surat tahlili, rasm ishlash, kompyuter, proektor va boshqa texnika vositalari orqali elektron axborot ta’lim resurslari (EATR) dan ta’lim samaradorligini oshirishda foydalanish.

Dars rejasini shakllantirish

Dars – maktab ta’limining asosiy tashkiliy shakli. Dars muayyan miqdordagi doimiy o‘quvchilar tarkibi bilan qat’iy tartibda uyushtiriladigan va aniq maqsadga yo‘naltirilgan didaktik tadbirdir.

Dars – ta’limni tashkil etish asosiy shakli.

Dars – insoniyat tomonidan minglab yillar mobaynida orttirilgan hayotiy tajribalarni o‘quvchilarga juda qisqa vaqtda o‘rgatishning eng samarali usuli.

Ta’limning dars shakli mamlakatimizda uzoq zamonlardan buyon qo‘llanilib kelgan. Darsni tashkil etish va uning samaradorligini ta’minlashda o‘qituvchining o‘rni beqiyos bo‘lgan. Tarixda ta’limning tashqi shakliy jihatlariga emas, balki mohiyatiga ham e’tibor berilgan.

O‘quvchilarning tayyorligini aniqlash, ularni guruhlarga ajratishda bolalarning yoshi va maktabda qancha vaqt o‘qiganligiga emas, balki o‘tilgan mashg‘ulotlarni nechog‘li o‘zlashtirganliklariga tayanilgan.

Ta’limning dars shakli bo‘lganligi bilan mashg‘ulotlarni sinf-dars tizimi tarzida uyushtirish tajribasi bo‘lmagan. Shuningdek, darsning davomiyligi, predmetlarning o‘rinlashuvi, kundalik mashg‘ulotlarning miqdori singari ta’limiy chegaralar har bir o‘qituvchining o‘zi tomonidan belgilangan.

Dars qadimda oliy va o‘rta ta’lim bo‘g‘inlarini ifoda etgan Madrasa ta’limida ham asosiy ish shakli hisoblangan.

Dars bevosita o‘qituvchi rahbarligida aniq belgilangan vaqt davomida muayyan o‘quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta’lim jarayonining asosiy shakli sanaladi.

Darsda har bir o‘quvchi xususiyatlarini hisobga olish, barcha o‘quvchilarning mashg‘ulot jarayonida o‘rganilayotgan fan asoslarini egallab

olishlari, ularning idrok etish qobiliyatlari va ma'naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash hamda rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratiladi.

Dars ta'limning boshqa shakllaridan farq qiluvchi o'ziga xos belgilarga ega:

o'quvchilarning doimiy guruhi, o'quvchilar faoliyatiga ularning har biri xususiyatlarini hisobga olish bilan rahbarlik qilish, o'rganilayotgan fan asoslarini bevosita darsda egallab olish (bu belgilari darsning faqat mazmunini emas, balki o'z xususiyatini ham aks ettiradi).

Darsning tuzilishi oddiy va ancha murakkab bo'lishi mumkin. Bu o'quv materialining mazmuni, darsning didaktik maqsadi, o'quvchilar va jamoa sifatida sinfning xususiyatlariga bog'liq.

Zamonaviy didaktikada darsning quyidagi turlari ajratib ko'rsatilgan:

Aralash darslar:

yangi ma'lumotlar, aniq hodisalar bilan tanishish bo'yicha yoki umumlashtirishlarni anglab yetish va o'zlashtirish maqsadiga ega darslar;

bilimlarini mustahkamlash va takrorlash darslari;

o'rganilganlarni umumlashtirish va tizimlashtirish asosiy maqsadiga ega darslar;

malaka va ko'nikmalarni ishlab chiqish va mustahkamlash darslari;

bilimlarni tekshirish va tekshirish ishlarini o'rganish darsi;

o'z tuzilishi bo'yicha oddiy bo'lgan, ya'ni bitta asosiy didaktik maqsadga ega bo'lgan dars turlari (o'rta va katta sinflarda qo'llash uchun mos keladi).

Barcha sinflarda o‘quvchilar yoshlarini hisobga olib bilimlarni berishni avval o‘rganilganni mustahkamlash, takrorlash bilan birga olib borish mumkin.

Materialni og‘zaki yetkazish. qiziqarli hikoyani o‘qish. *Darsning aynan mana shu turi aralash (kombinatsiyalashgan), yoki murakkab tuzilishli deb ataladi.*

Kombinatsiyalashgan darsning taxminiy tuzilishi: uy vazifalarini tekshirish va o‘quvchilar bilan savol-javob, yangi materialni o‘rganish, o‘zlashtirishini dastlabki tekshirish, mashq misollari davomida yangi bilimlarini mustahkamlash, ilgari o‘rganilganlarni suhbat ko‘rinishida takrorlash, uyga vazifa berishdan iboratdir.

O‘quvchilarning yangi materiallar bilan tanishish darsi yoki yangi bilimlarni berish (o‘rganish) darsi nisbatan keng doiradagi savollarni o‘z ichiga olgan va uni o‘rganishga ko‘p vaqtini talab qiluvchi, o‘quvchilarga tanish bo‘lmagan yangi material uning mazmuni bo‘lgan ta’lim jarayoni. Bunday darslarda uning mazmuni, aniq maqsadi va o‘quvchilarning mustaqil ish bajarishga tayyorgarliklariga qarab ba’zi hollarda yangi materialni o‘zi bayon etadi.

Yangi material bilan tanishish darsining tuzilishi: yangi materialni o‘rganish uchun asos bo‘lgan avvalgi materialni takrorlash. o‘qituvchining yangi materialni va darslik bilan ishlashni tushuntirishi, bilimlarni tushunishlarini tekshirish va dastlabki mustahkamlash, uyga vazifa berish.

Bilimlarni mustahkamlash darslarida o‘quv ishining asosiy mazmuni ilgari o‘zlashtirilgan

bilimlarni mustahkam o‘zlashtirish maqsadida ularni ikkinchi bor tushunib olish hisoblanadi.

O‘quvchilar o‘z bilimlarini yangi manbalar bo‘yicha anglab oladilar va chuqurlashtiradilar yoki ularga ma’lum bo‘lgan qoidaga yangi masalalar yechadilar, ilgari olgan bilimlarini og‘zaki va yozma takrorlaydilar yoki ilgari o‘rganganlarini yanada chuqurroq va mustahkam o‘zlashtirish maqsadida ulardan alohida masalalar bo‘yicha axborot beradilar.

Tuzilishi bo‘yicha bunday darslar quyidagi bosqichlardan o‘tishni ko‘zda tutadi:

uy vazifasini tekshirish, og‘zaki va yozma mashqlarni bajarish, topshiriqni bajarishni tekshirish, uyga vazifa berish.

Darslarning barcha shakllarida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malaka hamda kompetensiyalari mustahkamlanadi yoki shakllantiriladi. Bu jarayon bir necha metodlar bilan amalga oshiriladi.

Umumlashtiruvchi darslar (bilimlarini umumlashtirish va tizimlashtirishlar) ilgari o‘tilgan materialdan eng muhim savollari qayta takrorlanadigan va tizimlashtiriladigan, o‘quvchilar bilimlarida mavjud kamchiliklari to‘ldiriladigan va o‘rganilayotgan kursning muhim g‘oyalari ochib beriladigan darslar hisoblanadi.

Umumlashtiruvchi darslar mavzu, bo‘lim va o‘quv kurslarining yakunida o‘tkaziladi. Kirish va yakunlash darsning tarkibiy elementi hisoblanadi. Takrorlash va umumlashtirishning o‘zi hikoya, qisqacha xabarlar, darslikni o‘qib berish yoki o‘qituvchining o‘quvchilar bilan suhbatlashishi shaklida o‘tkazilishi mumkin.

Tekshirish (nazorat) darslari o‘qituvchiga o‘quvchilarning ma’lum sohadagi tayanch va fanga oid kompetensiyalarining shakllanganlik darajasi, o‘quvchilar bilimidagi bo‘shliqlarni aniqlash, shuningdek, navbatdagi topshiriqlarning bajarish yo‘llarini belgilab olishga yordam beradi. Tekshirish og‘zaki hamda yozma shaklda ham amalga oshirilishi mumkin.

Yuqorida ifodalangan hamma **darslarning majburiy elementi tashkiliy qism, asosiy qism, yakuniy qism hisoblanadi.**

Darsning tashkiliy bosqichi maqsadlarni qo‘yish va ularni o‘quvchilar tomonidan qabul qilish sharoitlarini ta’minlash, ish sharoitini yaratish, motivatsiya, o‘quvchilarni faollashtirish jarayonlarini o‘z ichiga oladi.

Bu jarayon turli metodlardan foydalangan holda amalga oshiriladi.

Asosiy qism yangi mavzu bilan ishlash, mavzuni anglash, tahlil qilish ijodiy faoliyat, xulosa qilish, atamalar bilan ishlash, eslab qolish yuzasidan beriladigan ko‘rsatmalarni shakllantirishni ko‘zda tutadi,

Darsga yakun yasash bosqichida maqsadga erishilganlik qayd etiladi.

O‘quvchilarni rag‘batlantirish, kelgusidagi vazifalarni belgilashni o‘z ichiga oladi.

Ta’limning tashkiliy shakli sifatida dars dinamik hodisadir. U pedagogik jarayonning yaxlitligini ta’minlaydi va ta’limiy – tarbiyaviy rivojlantirish vazifalarini ijobiy yechimini topishga imkon beradi.

Dars rivojlanishining asosiy tendensiyalari darsga bo‘lgan talablarda o‘zining aniq ifodasini topadi.

FSMU metodi (*Fikr, sabab, misol, umumlashtirish)*: Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, bahs-munozaralar o‘tkazishda yoki chorak yakunida yoki o‘quv dasturi asosida biron bo‘lim o‘rganib bo‘lingach qo‘llanilsa maqsadga muvofiqdir. Bu texnologiya o‘quvchilarni mustaqil fikrlash dars jarayonida egallagan bilimlari asosida vaziyatni baholashga shu bilan birga kommunikativ va milliy va umuminsoniy qadriyatlarga ega bo‘lish kompetensiyalar elementlarini shakllantiradi. Ushbu texnologiya o‘quvchilarga tarqatilgan oddiy qog‘ozga o‘z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarini bayon etishga yordam beradi. Amalga oshirish shakli: Ushbu texnologiya bir necha bosqichda o‘tkaziladi.

1-bosqich (tashkiliy):

- o‘qituvchi bahs mavzusini yoki muhokama etilishi kerak bo‘lgan muammoni, yoki o‘rganilgan bo‘limni belgilab oladi;

- o‘qituvchi dars avvalida har bir o‘quvchiga yakka tartibda ishlashi, keyin esa kichik guruhlarda ish olib borilishi va nihoyat dars oxirida jamoa bo‘lib ishlanishi haqida tinglovchilarga ma’lumot beradi;

- dars davomida har bir o‘quvchi o‘z fikrini erkin holda to‘liq bayon etishi mumkin ekanligi eslatib o‘tiladi.

2-bosqich (amaliy ishlar). Har bir o‘quvchiga FSMU texnologiyasining 4-bosqichi yozilgan qog‘ozlar tarqatilgan:

F – fikringizni bayon eting.

S – fikringizni bayoniga sabab ko‘rsating.

M – ko‘rsatgan sababingizni isbotlab misol (dalil) keltiring.

U – fikringizni umumlashtiring.

Har bir o‘quvchi yakka tartibda qog‘ozdagi FSMU-ning fikrlarini yozma bayon etgan holda to‘ldiradi.

3-bosqich (umumlashtirish). Har bir o‘quvchi o‘z qog‘ozlarini to‘ldirib bo‘lgach, o‘qituvchi ularni kichik guruhlarga bo‘linishlarini iltimos qiladi yoki o‘zi turli guruhlarga bo‘lish usullaridan foydalangan holda o‘quvchilarni kichik guruhlarga bo‘lib yuboradi. Bu bosqichda o‘quvchilar har biri o‘zlarining fikrlarini himoya qiladilar va yagona fikrni shakllantiradilar.

4-bosqich. Yozilgan katta formatdagi qog‘ozlarni tarqatadi; kichik guruhlar birlashtirilib, o‘quvchilarnining soniga qarab, uchta yoki to‘rtta katta guruhlarga birlashtiradi.

O‘qituvchi tomonidan kichik guruhlarda yozgan qog‘ozlardagi fikr va dalillarni katta formatda umumlashtirishni topshiradi.

Bu jarayonda avval har bir guruh vakili kichik guruhlarda umumlashtirilgan fikrlari bilan katta guruh a’zolarini tanishtirib o‘tadi. Barcha fikrlari o‘rganilgach fikrlar umumlashtiriladi. Bu bosqichda guruh a’zolari jamoa bo‘lib ishlaydilar va har bir fikrni himoya qilishga tayyorgarlik ko‘radilar.

5-bosqich. Har bir guruh muammo bo‘yicha o‘zlarining fikr va mulohazalarini himoya qiladilar.

6-bosqich:

– o‘qituvchi mashg‘ulotga yakun yasaydi, bildirilgan fikrlarga o‘z munosabatini bildiradi;

– quyidagi savollar bilan tinglovchilarga murojaat qiladi:

– ushbu trening yordamida nimalarni bilib oldingiz va nimalarga o‘rgandingiz?

– savollar har bir darsning mazmuni, maqsadidan kelib chiqib o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarga berilishi mumkin.

Tarqatma materialning taxminiy nusxasi.

FSMU texnologiyasi

(F) – fikringizni bayon eting.

(S) – fikringizni bayoniga biron sabab ko‘rsating.

(M) – ko‘rsatilgan sababni tushuntiruvchi (isbotlovchi) misol keltiring

(U) – fikringizni umumlashtiring.

Masalan: milliy qadriyatlarning jamiyatga ta’siri haqida ma’lumot bering.

F – men milliy qadriyatlarni qo‘llab quvvatlayman.

S – milliy qadriyatlar insonning o‘zligini anglatadi.

M – til – millat ko‘zgusidir. Milliy qadriyatlar bizning tariximizdan.

U – Shuning uchun ham miliy qadriyatlarni qo‘llab quvvatlayman.

“Aqliy hujum”

Mazkur metod muayyan mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo‘llanila-

digan metod sanalib, u mashg‘ulot ishtirokchilarini muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritish, shuningdek, o‘z tasavvurlari va g‘oyalaridan ijobiy foydalanish borasida ma’lum ko‘nikma hamda malakalarni hosil qilishga rag‘batlantiradi. Ushbu metod yordamida tashkil etilgan mashg‘ulot jarayonida ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha original yechimlarni topish imkoniyati tug‘iladi. “Aqliy hujum” metodi tanlab olingan mavzular doirasida ma’lum qadriyatlarni aniqlash, ayni vaqtda ularga muqobil bo‘lgan g‘oyalarni tanlash uchun sharoit yaratadi.

Mashg‘ulotlar jarayonida “Aqliy hujum” metodidan foydalanishda bir necha qoidalarga amal qilish talab etiladi. Ushbu qoidalar quyidagilar:

1. Mashg‘ulot ishtirokchilarini muammo doirasida keng fikr yuritishga undash, ular tomonidan kutilmagan mantiqiy fikrlarning bildirilishiga erishish.

2. Har bir ta’lim oluvchi tomonidan bildirilayotgan fikr yoki g‘oyalar miqdori rag‘batlantirilib boriladi. Bu esa bildirilgan fikrlar orasidan eng maqbullarini tanlab olishga imkon beradi. Bundan tashqari fikrlarning rag‘batlantirilishi navbatdagi yangi fikr yoki g‘oyalarning tug‘ilishiga olib keladi.

3. Har bir ta’lim oluvchi o‘zining shaxsiy fikri yoki g‘oyalariga asoslanishi hamda ularni o‘zgartirishi mumkin. Avval bildirilgan fikr (g‘oya)larni umumlashtirish, turkumlashtirish yoki ularni o‘zgartirish ilmiy asoslangan fikr (g‘oya)larning shakllanishiga zamin hozirlaydi.

4. Dars jarayonida ta’lim oluvchilarning har qanday faoliyatlarini standart talablar asosida

nazorat qilish, ular tomonidan bildirilayotgan fikrlarni baholashga yo‘l qo‘ymaydi.

Agarda ularning fikr (g‘oya)lari baholanib, boriladigan bo‘lsa, ta’lim oluvchilar o‘z diqqatlarini, shaxsiy fikrlarini himoya qilishga qaratadilar, oqibatda ular yangi fikrlarni ilgari surmaydilar. Mazkur metodni qo‘llashdan asosiy maqsad ta’lim oluvchilarni muammo xususida keng va chuqur fikr yuritishga rag‘batlantirish ekanligini e’tibordan chetda qoldirmagan holda ularning faoliyatlarini baholab borishning har qanday usulidan voz kechish maqsadga muvofiqdir.

Mashg‘ulot jarayonida ushbu metoddan samarali foydalanish maqsadida quyidagilarga amal qilish lozim:

1. Mashg‘ulot ishtirokchilarining o‘zlarini erkin his etishlariga sharoit yaratib berish.

2. G‘oyalarni yozib berish uchun yozuv taxtasi yoki varaqalarni tayyorlab qo‘yish.

3. Muammo (yoki mavzu)ni aniqlash.

4. Mashg‘ulot jarayonida amal qilinishi lozim bo‘lgan shartlarni belgilash. Shartlar quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

a) ta’lim oluvchilar tomonidan bildirilayotgan har qanday g‘oya baholanmaydi;

b) ta’lim oluvchilarning mustaqil fikr yuritishlari, shaxsiy fikrlarini ilgari surishlari uchun qulay muhit yaratiladi;

v) g‘oyalarning turlicha va ko‘p miqdorda bo‘lishiga ahamiyat qaratiladi;

g) boshqalar tomonidan bildirilayotgan fikrlarni yodda saqlash, ularning fikrlariga tayangan holda yangi fikrlarni bildirish, bildirilgan fikrlar asosida

muayyan xulosalarga kelish kabi harakatlarning ta'lim oluvchilar tomonidan sodir etilishiga erishiladi.

5. Bildirilayotgan g'oyalarni ularning mualliflari tomonidan asoslanishiga erishish va ularni yozib olish.

6. Muayyan qog'oz varaqlari g'oya (yoki fikr)lar bilan to'lgandan so'ng ularni yozuv taxtasiga osib qo'yish.

7. Bildirilgan fikrlarni yangi g'oyalar bilan boyitish asosida ularni quvvatlash.

8. Boshqalar tomonidan bildirilgan fikr (g'oya) lar bilan kulish, ularga nisbatan kinoyali sharhlarning bildirilishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

9. Ta'lim oluvchilar tomonidan yangi g'oyalar bildirilishi davom etayotgan ekan, muammoning yagona to'g'ri yechimini e'lon qilishga shoshilmaslik.

O'qituvchi tomonidan dars yakunida o'quvchilar ta'lim-tarbiyasidagi bo'shliqlar aniqlanadi, to'g'ri yo'lga yo'naltiriladi.

Aqliy hujum metodi to'g'ri va ijobiy qo'llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o'rgatadi.

"Fikriy hujum" metodi

Bu metod o'quvchilarning mashg'ulotlar jarayonida faolliklarini ta'minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag'batlantirish hamda bir xil fikrlashdan ozod etish muayyan mavzu yuzasidan rang-barang g'oyalarni to'plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish, yechish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo'lgan fikrlarni yechishga o'rgatish uchun xizmat qiladi.

“Fikriy hujum” metodi A.F.Osborn tomonidan tavsiya etilgan bo‘lib, uning asosiy tamoyili va sharti mashg‘ulot (bahs)ning har bir ishtirokchisi tomonidan o‘rtaga tashlanayotgan fikrga nisbatan tanqidni mutlaqo ta’qiqlash, har qanday luqma va hazil-mutoyibalarni rag‘batlantirishdan iboratdir.

Bundan ko‘zlangan maqsad ta’lim oluvchilarning mashg‘ulot (bahs) jarayonidagi erkin ishtirokini ta’minlashdir.

Ta’lim jarayonida ushbu metoddan samarali va muvaffaqiyatli foydalanish o‘qituvchining pedagogik mahorati va tafakkur ko‘lamining kengligiga bog‘liq bo‘ladi.

“Fikriy hujum” metodidan foydalanish chog‘ida ta’lim oluvchilarning soni 15 nafardan oshmasligi maqsadga muvofiqdir. Ushbu metodga asoslangan mashg‘ulot bir soat tashkil etilishi mumkin.

“Fikrlarning shiddatli hujumi” metodi

Mazkur metod A.Aleksandrov tomonidan asoslangan hamda G.Ya.Bush tomonidan qayta ishlangan. “Fikrlarning shiddatli hujumi” metodining mohiyati jamoa orasida muayyan topshiriqlarni bajarayotgan har bir ta’lim oluvchining shaxsiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashish hamda ta’lim oluvchilarda ma’lum jamoa (guruh) tomonidan bildirilgan fikrga keyingi qarshi g‘oyani ilgari surish layoqatini yuzaga keltirishdan iboratdir.

Ushbu metoddan foydalanishga asoslangan mashg‘ulot bir necha bosqichda tashkil etiladi. Ular quyidagilardir:

1-bosqich. Ruhiy jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lgan ta’lim oluvchilarni o‘zida biriktirgan hamda son jihatdan teng bo‘lgan kichik guruhlarni shakllantirish.

2-bosqich. Guruhlarga hal etish uchun topshirilgan vazifa yoki topshiriqlar mohiyatidan kelib chiqadigan maqsadlarni aniqlash.

3-bosqich. Guruhlar tomonidan muayyan g‘oyalarning ishlab chiqilishi (topshiriqlarning hal etilishi).

4-bosqich. Topshiriqlar yechimlarini muhokama etish, ularni to‘g‘ri hal etilganligiga ko‘ra turkumlarga ajratish.

5-bosqich. Topshiriqlar yechimlarini qayta turkumlashtirish, ya’ni ularni to‘g‘rilik darajasi, yechimini topish uchun sarflangan vaqt, yechimlarning aniq va ravshan bayon etilishi kabi mezonlar asosida baholash.

6-bosqich. Dastlabki bosqichlarda topshiriqlar yechimlari yuzasidan bildirilgan muayyan tanqidiy mulohazalarni muhokama etish hamda ular borasida yagona xulosaga kelish.

Yuqorida mohiyati bayon etilgan “Fikrlarning shiddatli hujumi” metodini ijtimoiy, gumanitar va tabiiy yo‘nalishlardagi fanlar yuzasidan tashkil etiladigan mashg‘ulotlar jarayonida birdek muvaffaqiyatli qo‘llash mumkin.

Metodni qo‘llash jarayonida quyidagi holatlar yuzaga keladi:

1. O‘quvchilar tomonidan muayyan nazariy bilimlarning puxta o‘zlashtirilishiga erishish;
2. Vaqtni iqtisod qilish;
3. Har bir o‘quvchini faollikka undash;

4. Ularda erkin fikrlash layoqatini shakllantirish.

Ko‘rinib turibdiki ushbu metod ta’lim oluvchilar tomonidan muayyan nazariy bilimlarning puxta o‘zlashtirilishiga erishish, vaqtni iqtisod qilish, har bir ta’lim oluvchini faollikka undash, ularda erkin fikrlash layoqatini shakllantirishga yordam beradi.

“Yalpi fikriy hujum” metodi

Mazkur metod J.Donald Filips tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, uni bir necha o‘n (20, 40 va 60) nafar ta’lim oluvchilardan iborat guruh (sinf) larda qo‘llash mumkin.

Ushbu metod ta’lim oluvchilar tomonidan yangi g‘oyalarning o‘rtaga tashlanishi uchun sharoit yaratib berishga xizmat qiladi. Har bir 5 yoki 6 nafar ta’lim oluvchilarni o‘z ichiga olgan guruhlarga 15 daqiqa ichida ijobiy hal etilishi lozim bo‘lgan turli xil topshiriq yoki ijodiy vazifalar beriladi.

Topshiriq va ijodiy vazifalar belgilangan vaqt ichida ijobiy hal etilgach, bu haqda guruh a’zolaridan biri axborot beradi. Guruh tomonidan berilgan axborot (topshiriq yoki ijodiy vazifaning yechimi) o‘qituvchi va boshqa guruhlar a’zolari tomonidan muhokama qilinadi va unga baho beriladi. Mashg‘ulot yakunida o‘qituvchi berilgan topshiriq yoki ijodiy vazifalarning yechimlari orasida eng yaxshi va o‘ziga xos deb topilgan javoblarni e’lon qiladi. Mashg‘ulot jarayonida guruh a’zolarining faoliyatlari ularning ishtiroklari darajasiga ko‘ra baholab boriladi.

Arra metodi

Pedagogik amaliyotda mazkur metodda kichik guruhlar 6-8 ta o‘quvchidan tashkil topadi. Dars davomida o‘rganiladigan mavzu mantiqan tugallangan qismlarga ajratiladi. Har bir qism yuzasidan o‘quvchilar bajarilishi lozim bo‘lgan o‘quv topshiriqlari tuziladi. Har bir o‘quvchilar guruhi mazkur topshiriqlarning bittasini bajaradi va shu qism bo‘yicha “mutaxassis”ga aylanadi.

So‘ngra guruhlar qayta tashkil etiladi. Bu guruhlarda har bir qism (blok yoki modul) “mutaxassis” bo‘lishi shart, mazkur “mutaxassis”-lar o‘zlari egallagan bilimlarni xuddi “arra” tishlari ketma-ket kelganidek navbat bilan o‘rtoqlariga bayon qilishadi. Mazkur guruhlarda o‘quv materiali mantiqiy ketma-ketlikda qayta ishlab chiqiladi.

1986-yili R.Slavin “arra” metodini qisman o‘zgartirib “arra-2” metodini yaratdi. Mazkur metodga ko‘ra kichik guruh 4-5 o‘quvchidan tashkil topadi. Barcha guruh a’zolari o‘quv materiali yuzasidan tuzilgan yagona topshiriq ustida ishlaydi. Guruh ichida o‘quvchilar topshiriqlarni qismlarga ajratib, bo‘lib oladilar. Har bir o‘quvchi o‘ziga tegishli qismini puxta o‘zlashtirib “mutaxassis”ga aylanadi.

Dars oxirida har bir kichik guruhdagi “mutaxassis”lar uchrashuvi qayta tashkil etilgan guruhlarda o‘tkaziladi.

O‘quvchilar bilimi test savollari yordamida individual tarzda o‘tqazilib nazorat qilinadi va baholanadi. Guruh a’zolarining ballari jamlanadi, eng yuqori ball to‘plagan guruh g‘olib sanaladi.

“Bumerang” texnologiyasi

Bu texnologiya o‘quvchi-talabalarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o‘rganilgan materialni yodida saqlab qolish, so‘zlab bera olish, fikrini erkin holda bayon eta olish hamda bir dars davomida barcha o‘quvchi-talabalarni baholay olishga qaratilgan.

Maqsad: dars davomida tinglovchilarga tarqatilgan materiallarni ular tomonidan yakka va guruh holatida o‘zlashtirib olishlari hamda o‘zaro suhbat munozara orqali, turli savollar, tarqatma materiallar va undagi matnlar qay darajada o‘zlashtirilganini nazorat qilish. Dars davomida o‘quvchi-talabalar tomonidan baho ballarini egallashga imkoniyat yaratish.

O‘tkazish texnologiyasi

1-bosqich:

– dars to‘g‘ridan to‘g‘ri tinglovchilarni 4-5 kishidan iborat kichik, guruhlarga bo‘lishdan boshlanadi;

– dars har bir guruh va uning har bir a’zosiga mustaqil o‘rganish, fikrlash va yodda saqlab qolish uchun alohida-alohida aniq yozma tarqatma material beradi tarqatma materialda o‘qituvchi tomonidan tanlangan umumiy mavzu bo‘yicha biron bir hajmdagi matn berilgan, ularning soni guruhlar va tinglovchilar soniga bog‘liq.

Agar 4 ta kichik guruh bo‘lsa, u holda umumiy mavzu 4 ta kichik matnlarga bo‘linib har bir guruhga beriladi;

– faoliyat samarali bo‘lishi uchun har bir guruhga berilgan matndan har bir tinglovchiga beriladi. Shunday qilib, 4 ta guruh umumiy mavzu asosida 4 xil matnga ega, har bir tinglovchi esa o‘z guruhiga tushgan matnga ega bo‘ladi.

2-bosqich. Guruhlarga berilgan matnni guruh a’zolari yakka tartibda alohida o‘rganishlari, matnni eslab qolishlari, keyin kerak bo‘lganda o‘qituvchiga yoki boshqalarga gapirib berishlari, iloji boricha matnni o‘zlashtirib olishlari kerakligini o‘qituvchi uqtiradi va tayyorgarlik uchun matnni katta-kichikligiga qarab 10-15 daqiqa vaqt beradi. O‘zi esa guruh va o‘quvchilarni ish faoliyatini kuzatadi.

3-bosqich:

– o‘qituvchi oldindan tayyorlab qo‘yilgan raqamlar yozilgan kichik qog‘ozlar bilan har bir guruh yoniga kelib guruh a’zolaridan ushbu qog‘ozlardan bittadan raqam tortib olishlarini so‘raydi (qog‘ozlar soni guruhdagi tinglovchilar soniga bog‘liq, masalan: guruhda 5 kishi bo‘lsa, qog‘ozdagi raqamlar 1, 2, 3, 4, 5 etib tayyorlanadi, agar 4 ta bo‘lsa 1 dan 4 gacha va h.) guruhlardagi barcha tinglovchilar raqamlar yozilgan qog‘ozdan olishlari kerak. Nechta guruh bo‘lsa, shuncha guruh a’zolari soniga qarab raqamlar yozilgan qog‘ozlar tayyorlanadi.

- o‘qituvchi raqamlar bo‘yicha tinglovchilardan yangi guruhlar tuzishlarini so‘raydi. Masalan: hamma 1 raqamini olganlar bitta yangi guruh, 2 raqamlilar ikkinchi guruh, 3 raqamlilar uchinchi guruhni, 4 raqamlilar 4 chi guruhni, 5 raqamlilar beshinchi guruhni tashkil etishlarini so‘raydi. Guruh a’zolari yangi guruhga o‘tishlarida o‘zlari bilan o‘rgangan matnlarini oladilar.

4-bosqich. Raqamlar bo‘yicha yangi guruhlar tuzilganda har bir yangi guruhda avvalgi guruhlardan bittadan vakillar o‘z-o‘zidan to‘planib qoladi, ya’ni 4 ta guruhda 4 xil matn o‘rganilgan bo‘lsa bu yangi guruhda har bittasidan bittadan vakil to‘planadi, umumiy mavzu bo‘yicha 4 tinglovchi va 4 xil matn to‘planadi.

5-bosqich:

– yangi tuzilgan guruhning har bir a’zosi endi o‘ziga 2 ta vazifa, ya’ni o‘qituvchi va o‘quvchi vazifasini oladi va quyidagicha faoliyat ko‘rsatadi:

1. O‘qituvchi (o‘rgatuvchi) sifatida, o‘zi avval o‘rgangan materialni gapirib beradi, tushuntiradi, o‘zi mustaqil o‘rgangan materialning asosiy joylariga barchani diqqatini jalb qiladi, boshqa guruh a’zolarining tushunish va o‘zlashtirish qobiliyatlarini tekshiradi.

2. O‘quvchi sifatida, guruh a’zolarini navbatma navbat so‘zlab, tushuntirayotgan, gapirayotgan matnlarini eshitadi, tahlil qiladi, fikrlaydi va yodda saqlab qolishga harakat qiladi. O‘qituvchi esa ularga o‘z tekstlarini faqat so‘zlab berishlari kerakligini uqtiradi va bunga taxminan 10-15 daqiqa vaqt beradi (matn hajmiga va umumiy mazmunining qiyin osonligiga qarab vaqt ajratiladi). Bu bosqichda tarqatilgan barcha material tinglovchilar tomonidan o‘zlashtirilgan hisoblanadi.

6-bosqich. Guruhdagilar bir-birlariga o‘z matnlarini gapirib berib, barchalari ushbu matnlarni bilib olishgach, o‘qituvchi o‘rganilgan material guruh a’zolari tomonidan qanchalik o‘zlashtirib

olinganini tekshirib ko‘rish uchun har bir guruh a’zosi bir-birlariga o‘z matnlaridan kelib chiqqan holda savollar berishlari mumkinligini tushuntiradi. Shunday qilib, guruh ichida ichki nazorat savol-javob orqali o‘tkaziladi. Bu esa guruhdagi tinglovchilarni bir-birlariga so‘zlab bergan materiallarini boshqalar tomonidan o‘zlashtirilganlik darajasini aniqlashga, mustahkamlashga yordam beradi.

7-bosqich: Tinglovchilar yana avvalgi joylariga qaytishlari so‘raladi, ya’ni yana hamma mashg‘ulot boshlanishidagi guruhlariga qaytadilar.

8-bosqich. O‘qituvchi sinfdagi o‘quvchilarning barchasi hammaga tarqatilgan yozma materiallar bilan tanish ekanliklari, ular haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lganliklarini hisobga olgan holda auditoriyadagi har bir o‘quvchidan xohlagan materialni so‘rashi mumkinligini aytadi.

9-bosqich. Tarqatilgan materiallarning tinglovchilar tomonidan qay darajada o‘zlashtirilganligi darajasini aniqlash maqsadida o‘qituvchi yoki maxsus guruh yoki opponent guruhi tomonidan berilgan nazorat savollariga javoblarni reyting baho tizimida – to‘liq javob uchun – 5 baho, qo‘shimcha uchun – 4 baho, tushuncha bo‘lsa (luqma tashlansa) – 3 baho, javob bermasa – 2 baho, umuman ishtirok etmasa – 1 baho qo‘yishni belgilash mumkin.

Guruh a’zolarining javoblarini yuqorida ko‘rsatilgan tartibda baholash, umumlashtirish uchun har bir guruh o‘ziga guruh qatnashchilaridan birini “hisobchi” etib tayinlashi mumkin (“hisobchi” ham davrada bo‘layotgan savol javoblar muloqotida ishtirok etadi).

10-bosqich. Bu bosqichda o‘qituvchi tarqatma materiallar asosida tuzilgan savollar (5-6 ta) bilan o‘quvchilarga murojaat qiladi (savollar iloji boricha hamma matnlarga tegishli bo‘lgani ma’qul, shuningdek o‘qituvchi sinfdagi barcha o‘quvchilarni javob berish uchun qamrab olishga harakat qiladi). Berilgan savollarga javob berish tugagach, o‘quvchi doskaga guruhlar tomonidan to‘plangan ballarni yozadi va mashg‘ulotning keyingi bosqichiga o‘tadi.

11-bosqich. O‘qituvchi har bir guruhni o‘z yozma materiallarining mazmunidan kelib chiqqan holda bittadan savol tayyorlashlari kerakligini aytadi va guruhlarga savol tuzishlari uchun 5-7 daqiqa vaqt ajratadi.

12-bosqich. Guruhlar bir-birlariga savollar beradilar, guruhlardagi “hisobchilar” guruh a’zolarining javoblarini yuqorida belgilangan tartibda baholab boradilar. Javoblar to‘g‘ri bo‘lsa, savol bergan guruh javobni to‘ldirmaydi.

13- bosqich. O‘qituvchi guruh a’zolari to‘plagan ballarni yana bir marotaba doskaga yozadi va to‘plangan baholarning umumiy sonini aniqlaydi. To‘plangan ballar (baholar)ni umumiy sonini guruh a’zolariga teppa-teng bo‘ladi (yuqorida keltirilganlik asosida).

Izoh: agar to‘plangan baholar guruh a’zolariga teppa-teng bo‘lishda o‘quvchilar tomonidan norozilik bo‘lsa, ya’ni ba’zi guruh a’zolari guruhning faoliyatida faol ishtirok etib, umumiy jamoaviy faoliyatda passiv bo‘lgan bo‘lishsa, yoki umuman ishtirok etmagan, qiziqmagan bo‘lishsa, bunday holatda vaziyatni yechishni guruh a’zolariga

yuklatiladi. Guruhning yechimi to‘g‘ri hisoblanadi, yoki o‘qituvchi o‘z fikrini bildirishi mumkin, chunki u dars jarayonida o‘quvchilarning javoblari, faol yoki passivliklarini kuzatib boradi.

Agar o‘quvchi faollik ko‘rsatmagan, yoki savol javoblarda ishtirok etmagan bo‘lsa ham uning shu dars jarayonida biron narsani bilib olgani, eslab qolib o‘zlashtirganini hisobga olgan holda unga eng kichik baho berilishi mumkin. Bu o‘quvchini keyinchalik shu shakldagi darslarda faolroq bo‘lishga undaydi. Yuqoridagi kabi vaziyat vujudga kelsa uni yechimini har bir o‘qituvchi sharoitga, faoliyatga qarab o‘zi hal etishi yoki guruh, jamoaga tashlashi mumkin.

Ba’zi guruhning “hisobchilari” baholarni qo‘yishda noaniqlik yoki qo‘shib yozishlari mumkin, natijada, ba’zi guruhlarning umumiy to‘plagan baholari boshqa guruhlarnikidan katta farq qilishi mumkin. O‘quvchilarning haqqoniy baholanishlari ularning tanlagan “hisobchi”lariga bog‘liq ekanligini o‘qituvchi eslatib o‘tadi. Agar umumiy to‘plangan ballarni guruh a’zolariga taqsimlanganda shu mashg‘ulot uchun belgilangan maksimal bahodan ortib ketgan bo‘lsa, u holda shu mashg‘ulot uchun kerakli bahoni olib qolib, ortiqchasini keyingi mashg‘ulotlarga yoki yakuniy nazoratga o‘tkazish mumkin.

14-bosqich. Har bir o‘quvchiga baho qo‘yilgach o‘qituvchi mashg‘ulotga yakun yasaydi. O‘quvchi o‘quvchilarning faoliyatiga baho beradi, berilgan javoblarga o‘z fikrini bildiradi va quyidagi savollar bilan ularga murojaat qiladi:

- bugungi darsdan nimalarni bilib oldingiz?

- nimalarni o‘rgandingiz?
- nimalar siz uchun yangilik bo‘ldi?
- yana nimalarni bilishni istar edingiz?

15-bosqich. O‘qituvchi o‘quvchilarning javoblarini diqqat bilan tinglab ularga minnatdorchilik bildiradi va darsni yakunlaydi.

“Insert” strategiyasi metodi. Sinf o‘quvchilari guruhlarga bo‘linadilar, guruhlar nomlanadi. O‘qituvchi har bir guruh o‘quvchilaridan mavzuga oid ikkitadan fikr bildirishlarini so‘raydi. Guruhlar navbati bilan (ushbu jarayonda guruhning barcha a’zolari faol ishtirok etishlarini ta’minlash maqsadga muvofiq) fikr bildiradilar.

Bayon etilgan fikrlar yozuv taxtasiga yozib boriladi. Faoliyat yakunlangach, o‘qituvchi mavzular mazmunini yoritishga xizmat qiluvchi matnni o‘quvchilarga tarqatadi. So‘ngra shunday topshiriq beriladi:

a) matn bilan tanishib chiqing;

b) matnning har bir qatoriga quyidagi belgilarni qo‘yib chiqing:

v) matnda guruh tomonidan bildirilgan fikr o‘z aksini topgan bo‘lsa;

s) matnda guruhlar tomonidan bildirilmagan fikr yuritilgan bo‘lsa;

g) matnda bir-biriga zid fikrlar mavjud bo‘lsa;

d) matn bilan tanishish jarayonida tushunmovchiliklar yuzaga kelsa.

So‘ngra guruh a’zolari shaxsiy qarashlarini o‘zaro fikr almashadilar, guruh bo‘yicha belgilar soni umumlashtiriladi. Liderlar vositasida har bir belgining miqdori bayon etiladi va izohlanadi. O‘qituvchi guruhlar tomonidan qayd etilgan

sonlarni ularning nomlari yozilgan ustunga yozib boradi.

O‘qituvchi har bir guruh lideri fikrini tugatgach, yuzaga kelgan qarama-qarshilik va tushunmovchiliklarni o‘quvchilar to‘g‘ri hal etishlariga va tushunib olishlariga yordam beradi.

Shundan so‘ng guruhlar darslikda berilgan matn bilan tanishib chiqib, asosiy tushunchalarni ajratidalar ular o‘rtasidagi mantiqiy munosabatlarni ochib berishga harakat qiladilar (modellashtiradilar). Guruhlar tomonidan ilgari surilgan fikrlar umumlashtirilib, liderlar tomonidan sinf jamoasida yetkaziladi.

“Jamoada o‘qitish” metodi

Jamoada o‘qitishda o‘quvchilar teng sonli ikkita komandaga ajratiladi. Har ikkala komanda bir xil topshiriqni bajaradi. Komanda a’zolari o‘quv topshiriqlarini hamkorlikda bajarib, har bir o‘quvchi mavzudan ko‘zda tutilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishga e’tiborni qaratadi. Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi mualliflaridan biri bo‘lgan R.Slavinning ta’kidlashicha, o‘quvchilarga topshiriqlarni hamkorlikda bajarish uchun ko‘rsatma berilishi yetarli emas. O‘quvchilar o‘rtasida tom ma’nodagi hamkorlik har bir o‘quvchining qo‘lga kiritgan muvaffaqiyatidan quvonish, bir-biriga sidqidildan yordam berish hissi, qulay ijtimoiy-psixologik muhit vujudga kelishi zarur.

Mazkur metod o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish sifatini aniqlashda ularni bir-biri bilan emas, balki har bir o‘quvchining kundalik natijasi avval qo‘lga kiritilgan natija bilan taqqoslanadi.

Shundagina o‘quvchilar o‘zining dars davomida erishgan natijasi jamoaga foyda keltirishini anglagan holda mas’uliyatni his qilib, ko‘proq izlanishga, bilim, ko‘nikma va malakalarni puxta o‘zlashtirishga intiladi.

Kichik guruhlarda hamkorlikda o‘qitish

Bu yondashuvda kichik guruhlar 4 ta o‘quvchidan tashkil topadi. O‘qituvchi avval mavzuni tushuntiradi, so‘ngra o‘quvchilarning mustaqil ishlari tashkil etiladi. O‘quvchilarga berilgan o‘quv topshiriqlari 4 qismga ajratilib, har bir o‘quvchi topshiriqning ma’lum qismini bajaradi. Topshiriq yakunida har bir o‘quvchi o‘zi bajargan qism yuzasidan fikr yuritib, o‘rtoqlarini o‘qitadi, so‘ngra guruh a’zolari tomonidan topshiriq yuzasidan umumiy xulosa chiqariladi. O‘qituvchi har bir kichik guruh axborotini tinglaydi va test savollari yordamida bilimlarni nazorat qilib baholaydi.

O‘quvchilarning kichik guruhlardagi o‘quv faoliyati o‘yin (turnir, musobaqa) shaklida, individual tarzda ham tashkil etilishi mumkin

Kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish metodi. Kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish metodi 1976-yili Tel-Aviv universiteti professori Sh.Sharan tomonidan ishlab chiqilgan. Bu metodda ko‘proq o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy ishiga e’tibor qaratiladi.

O‘quvchilar alohida-alohida yoki 6 kishilik kichik guruhlarda ijodiy izlanish olib boradilar. Ijodiy izlanish kichik guruhlarda tashkil etilganda darsda o‘rganish lozim bo‘lgan o‘quv materiali kichik qismlarga ajratiladi. Keyin bu qismlar yuzasidan topshiriqlar har bir o‘quvchiga taqsimlanadi.

Shunday qilib, har bir o‘quvchi umumiy topshiriqning bajarilishiga o‘z hissasini qo‘shadi. Kichik guruhlarda topshiriq yuzasidan munozara o‘tkaziladi. Guruh a’zolari birgalikda ma’ruza tayyorlaydi va sinf o‘quvchilari o‘rtasida o‘z ijodiy izlanishlari natijasini e’lon qiladi. Kichik guruhlar o‘rtasida o‘tkazilgan o‘quv bahsi, munozara o‘quvchilar jamoasining hamkorlikda bajargan mustaqil faoliyatining natijasi, yakuni sanaladi. Hamkorlikda ishlash natijasida qo‘lga kiritilgan muvaffaqiyatlar sinf jamoasining har bir o‘quvchining muntazam va faol aqliy mehnat qilishiga, kichik guruhlarni, umuman sinf jamoasini jipslashtirishga, avval o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni yangi kutilmagan vaziyatlarda qo‘llanib, yangi bilimlarning o‘zlashtirilishiga bog‘liq bo‘ladi.

“Nuqtai nazaring bo‘lsin” metodi

Metodning qo‘llanishdan maqsad:

– o‘quvchilar muayyan muammoga o‘z nuqtai nazarini asosli dalillab, himoya qilishga o‘rganadilar;

– o‘quvchiga muammo muhokamasi jarayonida o‘z fikrini o‘zgartirish imkonini berish;

– o‘qituvchi barcha o‘quvchilarni munozaraga jalb etish va sinfdagi hamma o‘quvchilar o‘rtasida munozara jonlanishini yuzaga keltirishi mumkin.

“Nuqtai nazaring bo‘lsin” uslubi o‘quvchilar o‘rtasida munozara yuzaga kelishi va ular munozara jarayonida o‘z fikrlarini o‘z sinfdoshlaridan ularning nuqtai nazarini o‘zgartirishga ishontiradigan g‘oyalarni eshitib o‘zgartirish yoki avvalgisini mustahkamlash imkonini berish maqsadida qo‘l-

lanadi. O‘quvchilar shuningdek, maktab, mintaqa, respublika va jumla insoniyat uchun xarakterli bo‘lgan eng dolzarb muammolar o‘z nuqtai nazarlarini asosli dalillash va himoya qilishga o‘rganadilar.

O‘qituvchi ochiqdan ochiq savollar uslubi bilan odatda dars jarayonida faol bo‘lmagan o‘quvchilarni munozarada ishtirok etishga majbur qiladi.

Tanqidiy tafakkur.

“Tanqidiy tafakkur” uslubi o‘quvchi qo‘yilgan masala yoki muammo yuzasidan o‘z fikrini bayon qilish, o‘zgalarning fikrlarini tanqidiy qayta idrok etish, o‘z nuqtai nazarini asoslab berish va saqlab qolish imkoniyatiga ega bo‘lishiga asoslangan. Masalan, odob-axloq qoidalariga amal qilish kerakmi? Jamoa transportida maktab o‘quvchilari uchun bepul yo‘lkira joriy etish kerakmi? Va shunga o‘xshash masalalar. Bu narsa o‘qituvchiga o‘quvchilarning tinglash va muloqot qilish ko‘nikmalarini, turli nuqtai nazardan tushunish malakasini rivojlantirish, bahsli masalalarni hal qilish, tahliliy mushohada yuritish va fikrlash layoqatini oshirish, ularning o‘z fikrini shakllantirish mahoratini mustahkamlash imkoniyatini beradi.

O‘quvchilarning oldiga muammoli topshiriq yoki chalkash masala qo‘yiladi va quyidagi savollardan foydalanish tavsiya etiladi:

– Nima deb o‘ylaysiz?
– Fikringiz qanaqa?
– Sizningcha qanday?
– Nega bunday deb o‘ylaysiz?

– Nimalar asosida bunday xulosaga keldingiz?

O‘qituvchi o‘quvchilar bilan birgalikda har xil nuqtai nazarlarni muhokama qilish vositasida barcha fikrlarni tahlil qilib chiqadi. Muammoli topshiriq, masala bo‘yicha qabul qilingan qarorga o‘quvchilar tomonidan o‘z nuqtai nazarlarini qabul qilishi yoki qayta baholanishi bilan erishiladi.

“Hamma bir-biriga o‘rgatadi”

“Hamma bir-biriga o‘rgatadi” uslubi o‘quvchilarga o‘rgatuvchiga aylanish, ma’lum bilimlarni o‘zlashtirgach, sinfdoshlari bilan baham ko‘rish imkonini beruvchi o‘qitish uslubidir. Bu uslubning maqsadi o‘quvchilarga o‘qitish jarayonida zarur bo‘lgan axborot maksimumini berish, ayni paytda o‘quvchida axborot olish va berishga qiziqish uyg‘otishdir. Shuningdek, axborot hajmini olgan o‘quvchi ma’lum vaqt davomida uni iloji boricha ko‘proq o‘rtoqlariga yetkazadi.

“Ikki qismli kundalik”

Ikki qismli kundalik pedagogik uslub bo‘lib, yozma nutqni rivojlantiradi. Bu uslub o‘qib chiqilgan mavzu bo‘yicha tushunchalarni shaxsiy tajriba bilan bog‘lashga imkon beradi.

Maqsad: o‘rganilayotgan mavzuga qiziqish uyg‘otish, yozma nutqni rivojlantirish.

Amalga oshirish bosqichlari:

1-bosqich. O‘quvchilarga oldindan tayyorlab qo‘yilgan matn o‘qish uchun taklif etiladi.

Masalan: Yaxshi ishlarning yana bir afzalligi shundaki, u qalbni yuksaltiradi va uni yanada ezgu ishlarga moyil qiladi. (Jan Jak Russo)

2-bosqich. Hamma matn bilan tanishganiga ishonch hosil qilib, daftarni vertikal chiziq bilan ikkiga bo‘lish so‘raladi.

3-bosqich. O‘quvchilarga, daftarni chap tomoniga muallif sitatalar (g‘oyalari, fikrlari)ni yoqqanlarini (yoki yoqmaganlarini) yozishlari aytiladi.

4-bosqich. O‘ng tomonga o‘quvchi mazkur sitataga berilgan o‘zining izohini yozadi, ya’ni o‘qilgan matn haqidagi tushunchasini umumlashtirib beradi.

5-bosqich. Topshiriqning shu qismi tugagandan keyin o‘quvchilarga (o‘z xohishiga ko‘ra) bittadan iqtiboslarni va ularga yozilgan izohni o‘qish taklif etiladi. Iqtibos va ularning izohi o‘qilayotganda savol berish yoki mazkur iqtibosga o‘z izohini berishga ruxsat etiladi.

6-bosqich. O‘quvchilar sherik (uchliklar yoki kichik guruhlar) bo‘lib ham ishlashlari mumkin.

Venn diagrammasi

Venn diagramma-grafik ko‘rinishda bo‘lib, olingan natijalarni umumlashtirib, ulardan bir butun xulosa chiqarishga, ikki va undan ortiq predmetni (ko‘rinish, fakt, tushuncha) tahlil qilish va o‘rganishda qo‘llaniladi. Diagramma ikki va undan ortiq aylanani kesishmasidan hosil bo‘ladi. Maqsad: ikki va undan ortiq predmet va tushunchalarni taqqoslashda, turli va umumiy tomonlarini aniqlashda bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish.

Amalga oshirish bosqichlari:

1-bosqich. O‘quvchilar (sheriklari bilan) ikki doirani to‘ldiradilar, har bir doiraga ikki tushuncha (predmet)ni e’tiborli tomonlari sanab o‘tiladi.

2-bosqich. O‘quvchilarni kichik guruhlarga (4-5 kishidan iborat) birlashtirib, diagrammalarni taqqoslaymiz va to‘ldiramiz.

3-bosqich. Kichik guruh o‘quvchilariga bu tushunchalarning (predmet, ko‘rinishlarning) umumiy xossalarini aniqlashni taklif etamiz.

4-bosqich. Biron bir guruh vakili har bir tushunchaning o‘ziga xos tomonlarini o‘qiydi. Boshqalar zarurat bo‘lganda uning javobini to‘ldiradilar.

5-bosqich. Boshqa guruh vakillari ikki tushunchani birlashtiruvchi (umumiy) xususiyatlarni o‘qiydi. Boshqalar zarurat paydo bo‘lganda bu javoblarni to‘ldiradilar.

Komandada o‘qitishda o‘quvchilar teng sonli ikkita komandaga ajratiladi. Har ikkala komanda bir xil topshiriqni bajaradi. Komanda a’zolari o‘quv topshiriqlarini hamkorlikda bajarib, har bir o‘quvchi mavzudan ko‘zda tutilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishga e’tiborni qaratadi.

Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi mualliflaridan biri bo‘lgan R.Slavinning ta’kidlashicha, o‘quvchilarga topshiriqlarni hamkorlikda bajarish uchun ko‘rsatma berilishi yetarli emas. O‘quvchilar o‘rtasida tom ma’nodagi hamkorlik har bir o‘quvchining qo‘lga kiritgan muvaffaqiyatidan quvonish, bir-biriga sidqidildan yordam berish hissi, qulay ijtimoiy-psixologik muhit vujudga kelishi zarur. Mazkur texnologiyada o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish sifatini aniqlashda ularni bir-biri bilan emas, balki har bir o‘quvchining kundalik natijasi avval qo‘lga kiritilgan natija bilan taqqoslanadi.

Shundagina o‘quvchilar o‘zining dars davomida erishgan natijasi komandaga foyda keltirishini anglagan holda mas’uliyatni his qilib, ko‘proq izlanishga, bilim, ko‘nikma va malakalarni puxta o‘zlashtirishga intiladi.

Orfografik estafeta kichik maktab yoshdagi bolalar bilan ishlashning qiziqarli shakli bo‘lib, u o‘quvchilarda mantiqiy tafakkur qobiliyatini rivojlantiruvchi guruhlarda ishlash ko‘nikmasini, shuningdek xotirani rivojlantirish imkonini beradi. U intensiv o‘qitish bilan bir vaqtda bolalardagi harakat ehtiyojini ham qondirishga sharoit yaratadi. Orfografik estafeta an’anaviy aytib turib yozdirish maqsadida, “an’anaviy” diktantga o‘xshamay erishish imkonini beradi.

Estafeta juda o‘zgaruvchan ish shaklidir. Ozgina moslashuvdan so‘ng undan birinchi sinf o‘quvchilariga alifboni tanishtirishdan boshlab, 5- va 6-sinflarda ham foydalanish mumkin.

Materiallar: diktant matni qog‘oz varag‘i, ruchka, qizil siyohli ruchka guruhga bittadan g‘oliblarga yutuqlar bo‘lishi mumkin

Mashqning borishi:

1. O‘qituvchi o‘quvchilarni 3-5 ta guruhlarga ajratadi. Ularning har birida o‘quvchilar quydagilarni tanlaydilar:

yozuvchi (har bir guruhda bitta)

yuguruvchilar (guruhda 1-3 ta)

musahhih (har bir guruhda bittadan)

O‘qituvchi sinfdan tashqarida, 10-30 metr masofada (masalan, yo‘lak oxirida) diktant matni yozilgan doskani osib qo‘yadi.

2. Har bir guruh o‘z joyiga ega bo‘lib, u yerda yozuvchi va musahhih o‘tiradi.

3. Mashq o‘qituvchi ishorasi bilan boshlanadi. Guruhning vazifasi doskadagi matnni bexato ko‘chirib yozishdir. Yuguruvchilar doska yoniga yugurib boradilar, doskadagi yozuvni o‘qiydilar va yozuvning mumkin qadar ko‘proq qismini eslab qolishga harakat qiladilar (ularga birorta yozuvlar qilishga ruxsat etilmaydi). Yozuvchilar yuguruvchilar eslab qolib aytgan matnlarini yozadilar. Musahhih yozuvchi butun matnni yozib bo‘lgan, uni tekshiradi, xatolari bo‘lsa, to‘g‘rilaydi. Tayyor matn o‘qituvchiga tanishtiriladi.

Estafetani 1 sinfda 1-yarim yillikda kiritar ekanmiz, uning eng oddiy variantidan foydalanamiz.

3 kishilik (1 yozuvchi, 1 musahhih, 1 yuguruvchi) guruhlar tuziladi. O‘qituvchi guruhlarni shunday tuzadiki, guruhlar darajasida katta nomutanosibliklar bo‘lmasligi kerak. Diktant matni yaxlitligicha eslab qolish oson bo‘lishi uchun qisqa (2-3 ta qisqa gaplar) bo‘lishi kerak.

Yuguruvchilarning vazifasi matnni eslab qolish hisoblanadi (matnni qismlarga ajratish va sinfdan bir necha marta chiqishga ruxsat etilmaydi). Musahhihlar matnning to‘g‘ri yozilganligini tekshirish uchun, yozuvchi yozgan diktant matnini doskadagi yozuvga qiyoslab tekshiradilar, xatosi bo‘lsa qizil ruchka bilan to‘g‘rilaydilar.

Ko‘pincha birinchi mashq davridayoq, o‘quvchilar topshiriqni yuguruvchilar yaxshi sportchi bo‘lganlar emas, balki matnni yaxshi eslab qolish qobiliyatiga ega bo‘lganlar guruhi yaxshiroq bajarishini bilib oladilar (zarur bo‘lganda

mashq natijalarini muhokama qilishda o‘qituvchi ularga savollar berib, shunday xulosaga kelishga undashi kerak).

Bu mashq birinchi sinfda o‘tkazilar ekan. Yozuvchilarinig tartibsiz yozishlariga yo‘l qo‘ymaslik kerak.

Dastlabki sinov estafetalarida mashqning davomiyligini cheklash lozim.

Uni guruhlarning aksariyati ishini tugatganda tugallash lozim.

Mashqlar vaqtida o‘qituvchi asosiy xavfsizlik choralarini ta’minlashi kerak. Ham karidorda, ham sinfda bolalar uning nazorati ostida bo‘lishlari kerak. Estafetadan keyingi foydalanishlarda diktant matnini muntazam ko‘paytirib, ayni bir vaqtda o‘yin qoidalariga o‘zgartirishlar kiritish lozim:

- yuguruvchilar sonini 2 kishiga yetkazish, bu eslab qolinadigan matnni qismlariga ajratish imkonini beradi (o‘qituvchi buni to‘g‘ridan to‘g‘ri aytmasligi kerak, faqat mashq muhokamasida shunday qilish mumkinligini eslatib o‘tish kifoyadir).

- bitta yuguruvchiga matn qismini eslab qolib, uni yozuvchiga aytish va qolgan matnni o‘qish uchun doska yoniga qaytish imkonini berish.

Birinchi sinfning ikkinchi yarim yilligida o‘quvchilar alifboni yodlab olganlaridan so‘ng orfografik lug‘at bilan ishlashni, yuqori sinflarda esa mustaqil tekshirishni kiritsa bo‘ladi.

O‘quvchilarni guruhlarga bo‘lishning usullari ko‘p. Estafeta birinchi bor o‘tkazilar ekan, o‘qituvchi guruhlar darajasi nisbatan bir xil bo‘lishiga

harakat qilishi kerak. Vaqti kelib, guruhlarda o‘quvchilar soni 3 tadan ortiq bo‘lganda, guruhlarni to‘g‘ri bo‘lishning ahamiyati ortib borganda, guruhlarni lotoreyali bo‘lishni kiritish mumkin. Guruhlarni mustaqil tashkil etilishiga yoki guruhni o‘qituvchi tanlagan yetakchilar tomonidan tashkil etilishiga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi.

Dastlab estafeta baholanmasligi kerak. Taqdirlash usuli o‘qituvchi fantaziyasi va ishtiyoqiga havola. Vaqti kelib, diktantlar uzayib, guruhlar soni ortib borganda eng yaxshi guruh uchun mukofot baho bo‘lishi kerak. (Guruhning barcha a’zolariga bir xil baho) qolgan guruhlar baholanmaydi.

Estafetalar ko‘p marta o‘tkazilgandan so‘ng o‘qituvchi unga o‘z ixtiyoricha o‘zgartirishlar kiritishi mumkin. Ammo bu o‘zgartirishlar estafetaning asosiy prinsiplariga xilof bo‘lmasligi kerak.

“Rasmlarni joylashtirish” metodi

O‘quvchilarni kichik guruhlarga bo‘lish asosida faoliyat olib borishda “Rasmlarni joylashtir” nomli interfaol metoddan foydalanish o‘zining ijobiy natijasini beradi.

“Rasmlarni joylashtir” nomli metodni qo‘llash jarayonida quyidagi harakatlar amalga oshiriladi. Juftliklar o‘quvchilarga o‘qituvchi tomonidan tayyorlangan hamda har bir kartochkaning bir tomoniga mavzuga, qismlar tarkibiy qismlarini anglatuvchi so‘zlar yozilgan kartochkalar to‘plami beriladi. Guruh o‘quvchilarining faoliyat yuritishlari uchun shunday ko‘rsatmalar beriladi.

Mavzu yuzasidan o‘zlashtirilgan bilimlaringizga tayanib taqdim etilgan kartochkalarni mantiqiy ketma-ketlikda joylashtiring. Kartochkalarni orqa tomonini o‘chiring va topshiriqni to‘g‘ri bajarganligingizni tekshiring. (agar vazifa bajarilgan bo‘lsa, har bir kartochkaning orqa tomoniga yozilgan xatlar yordamida hosil bo‘lgan so‘z o‘qiladi).

Topshiriqning bajarilish holatiga muvofiq o‘quvchilar “Nazorat varag‘i”ning birinchi pog‘onasiga shaxsiy faoliyatlari uchun baho (ball tizimida) qo‘yadilar. Savollarga asoslanuvchi suhbatni tashkil etish. Mazkur holatda o‘quvchilarga bir nechta savollar bilan murojaat qilinadi.

“Skarabey” interaktiv texnologiya bo‘lib, u o‘quvchilarda fikriy bog‘liqlik, mantiqiy xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi, qandaydir muammoni hal qilishda o‘z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi. Mazkur texnologiya o‘quvchilarga mustaqil ravishda bilimning sifati va saviyasini xolis baholash, o‘rganilayotgan mavzu haqidagi tushuncha va tasavvurlarni aniqlash imkonini beradi. U, ayni paytda, turli g‘oyalarni ifodalash hamda ular orasidagi bog‘liqliklarni aniqlashga imkon yaratadi. “Skarabey” texnologiyasi har tomonlama bo‘lib, undan o‘quv materialining turli bosqichlarini o‘rganishda foydalaniladi:

– boshida-o‘quv faoliyatini rag‘batlantirish sifatida (“aqliy hujum”);

– mavzuni o‘rganish jarayonida-uning mohiyati, tuzilishi va mazmunini belgilash; ular orasidagi asosiy qismlar, tushunchalar, aloqalar xarakterini aniqlash; mavzuni yanada chuqurroq o‘rganish, yangi jihatlarini ko‘rsatish;

– oxirida-olingan bilimlarni mustahkamlash va yakunlash maqsadida. “Skarabey” texnologiyasi o‘quvchilar tomonidan oson qabul qilinadi, chunki u faoliyatning fikrlash, bilish xususiyatlari inobatga olingan holda ishlab chiqilgan. U o‘quvchilar tajribasidan foydalanishni ko‘zda tutadi, reflektiv kuzatishlarni amalga oshiradi, faol ijodiy izlash va fikriy tajriba o‘tkazish imkoniyatlariga ega. Mazkur texnologiyaning ayrim afzalliklari sifatida idrok qilishni yengillashtiruvchi chizma shakllardan foydalanishni ko‘rsatish mumkin.

“Skarabey” alohida ishlarda, kichik guruhlarda hamda o‘quv jamoalarida qo‘llanilishi mumkin.

Ta’limdan tashqari mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi:

– o‘zgalar fikriga hurmat;
– jamoa bilan ishlash mahorati;
– faollik;
– xushmuomalalik;
– ishga ijodiy yondashish;
– imkoniyatlarini ko‘rsatish ehtiyoji;
– o‘z qobiliyati va imkoniyatlarini tekshirishga yordam beradi;
– “men”ligini ifodalashga imkon beradi;
– o‘z faoliyati natijalariga ma’sullik va qiziqish uyg‘otadi.

Asosiy tushunchalari quyidagilar:

Assotsiatsiya-mantiqiy bog‘liqlik bo‘lib, sezgilar, tasavvurlar, idrok qilish, g‘oyalar va boshqalar orasida hosil qilinuvchi mantiqiy aloqadir.

Zanjirlash (muayyan tartib) – ahamiyati, muhimligi, mazmuni darajasiga qarab tartiblashdan iborat.

Kubiklar – mavjud bo‘lgan istiqbol orqali u yoki bu mavzuni ko‘rib chiqishga imkon yaratuvchi uslub. Bunda fikrlash uchun turli yo‘l-yo‘riqlar qo‘llaniladi.

Kubiklar 6 tomonli 15-20 sm:

1. Buni ta’riflang.
2. Buni taqqoslang.
3. Bunga taalluqli fikrlarni bog‘lang.
4. Buni tahlil qiling.
5. Buni qo‘llang.
6. Bunga qarshi dalil keltiring.

Amalga oshirish bosqichlari:

Mavzu beriladi va o‘quvchilarga shu mavzu haqida har tomonlama o‘ylab ko‘rish, ya’ni predmetni (obraz yoki biron-bir ko‘rinish) batafsil (rangi, shakli, belgilari va hokazolarni) ko‘rib chiqish taklif etiladi.

O‘quvchilar orqama-ketin quyidagi topshiriqni bajarishadi.

Buni ta’riflang (predmetning, hodisaning tashqi ko‘rinishini ta’riflash)

Buni taqqoslang (u nimaga o‘xshaydi, nimadan nimasi bilan farq qiladi)

Bunga taalluqli fikrlarni bog‘lang (u nima haqida o‘ylashga majbur qiladi, qanday ko‘rinishlar ko‘z oldingizga keladi. Tasavvurlaringizga erkinlik bering, bu nimalarga o‘xshaydi va nimalardan farq qiladi)

Buni tahlil qiling (predmetning, hodisaning o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsating)

Buni qo‘llang (ya’ni buni qanday qo‘llash mumkin, bu predmet, hodisa haqidagi bilimlarni qachon va qayerda qo‘llash mumkin)

Hodisa, predmet uchun yoki unga qarshi dalillar keltiring (ya'ni faqatgina ta'rif bermay, buning uchun yoki unga qarshi ishontiruvchi dalil topish kerak)

O'quvchilar bu yozma ishni bajarganlaridan so'ng, kubikning har bir tomoniga taalluqli javoblari bo'yicha sheriklari bilan yoki guruhlarda (agar bu ish guruhlarda bajarilgan bo'lsa) fikr almashadilar (agar juftlikda bajarilgan bo'lsa).

4. Javoblar xohishga ko'ra sherik nomidan yoki guruh nomidan o'qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun guruh va mavzuga qarab, kubikning mos keladigan uch tomonini qo'llash mumkin. Albatta savollar topshiriqlarga mos qilib tuziladi.

– bu qanday ko'rinishga ega?

– bu nimaga o'xshaydi va nimadan farq qiladi? (taqqoslang)

– yana nima haqda o'ylab ko'rish mumkin? (bunga taalluqli fikrlarni bog'lang)

– bu nimadan yasalgan? (tahlil qiling)

– uni qanday qo'llash mumkin?

– u yaxshimi yoki yomon (uning uchun yoki unga qarshi dalillar keltiring)

Kubik bilan ishlaganda tartibga rioya qilish kerak (masalan, asar qahramonlari asarni o'qigandan so'ng tariflanadi).

Kubiklarni refleksiya bosqichida qo'llash mumkin.

O'quvchilar ma'lum darajada bilimga ega ekanligiga ishonch hosil qilgandan so'ng, mos keladigan mavzu tanlanadi.

Kubik bilan ishlaganda o'quvchilar bir-birlariga xalaqit bermasliklari kerak.

Didaktik o‘yinli texnologiyalar

Ta’lim jarayonida didaktik o‘yinli texnologiyalar didaktik o‘yinli dars shaklida qo‘llaniladi. Ushbu darslarda o‘quvchilarning bilim olish jarayoni o‘yin faoliyati bilan uyg‘unlashtiriladi. Shu sababli o‘quvchilarning bilim olish faoliyati o‘yin faoliyati bilan uyg‘unlashgan darslar didaktik o‘yinli darslar deb ataladi.

Inson hayotida o‘yin faoliyati orqali quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

O‘yin orqali shaxsning ma’lum bir faoliyatga bo‘lgan qiziqishi ortadi.

Kommunikativ-muloqot madaniyatini egallashga yordam beradi.

Shaxsning o‘z iqtidori, qiziqishi, bilimi va o‘zligini namoyon etishga imkon yaratadi.

Hayotda va o‘yin jarayonida yuz beradigan turli qiyinchiliklarni yengishga tayyorlaydi, mo‘ljalni to‘g‘ri olish ko‘nikmalarini hosil qiladi.

O‘yin jarayonida ijtimoiy normalarga mos xulq-atvorni egallash, kamchiliklarga barham berish imkoniyati yaratiladi.

Shaxsning ijobiy xislati va fazilatlarini shakllantirishga zamin tayyorlaydi.

Insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan qadriyatlar tizimi, ayniqsa, ijtimoiy, ma’naviy-madaniy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘rganishga e’tibor qaratiladi.

O‘yin ishtirokchilarida jamoa muloqot madaniyatini rivojlantirish ko‘zda tutiladi.

O‘yin bilan bog‘liq faoliyat o‘zining to‘rtta xususiyati bilan ajralib turadi:

Erkin rivojlantiruvchi faoliyatning vujudga kelishi (Bunda o‘yin ishtirokchilari rollarni, vazifalarni tanlash, o‘z faoliyatidan ko‘ngli to‘lishi nazarda tutiladi).

Ijodiy muhitning tarkib topishi (o‘yin ishtirokchilari tegishli ijodiy va mustaqil faoliyatga ega bo‘ladilar).

His-hayajonli vaziyatning paydo bo‘lishi (o‘yin davomida musobaqa, raqobat, hamkorlik, o‘zaro yordam vujudga keladi).

O‘yin davomida belgilangan qonun-qoidalarga qat’iy amal qilinishi (o‘yin mazmuni, borishi, mantiqiy ketma-ketligi, vaqt balansi va h.k.).

O‘yin tarkibiga quyidagi masalalar kiradi:

a) o‘yinning syujeti;

b) muayyan rollar, vazifalar;

v) ushbu rollarni amalga oshirish uchun bajariladigan amallar (usullar);

g) aniq o‘yinlar yoki shartli ravishdagi o‘yin vositalaridan foydalanish;

d) o‘yin ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabat, muloqot.

O‘yin faoliyatining tarkibi quyidagilardan tashkil topadi:

O‘yindan ko‘zda tutilgan maqsadni aniqlash, loyihalash.

Ushbu maqsadni amalga oshirish yo‘llarini belgilash.

Olingan natijalarni tahlil qilish.

O‘yin strukturasiga tegishli o‘zgartirishlar kiritish.

Didaktik o‘yinli darslarning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagi jadvalda o‘z aksini topgan.

Didaktik o‘yinli darslarni o‘quvchilarning bilim olish va o‘yin faoliyatining uyg‘unligiga qarab: syujetli-rolli o‘yinlar, ijodiy o‘yinlar, ishbilarmonlar o‘yini, konferensiyalar, o‘yin-mashqlarga ajratish mumkin.

O‘qituvchi avval o‘quvchilarni individual, so‘ngra guruhli o‘yinlarga tayyorlashi va uni o‘tkazishi ular muvaffaqiyatli chiqqandan so‘ng, ommaviy o‘yinlarga tayyorlashi lozim. Chunki o‘quvchilar didaktik o‘yinli darslarda faol ishtirok etishlari uchun zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari, bundan tashqari, sinf jamoasi o‘rtasida hamkorlik, o‘zaro yordam vujudga kelishi lozim.

O‘qituvchi didaktik o‘yinli darslarni o‘tkazishda quyidagi didaktik talablarga amal qilishi lozim:

Didaktik o‘yinli darslar dasturida qayd etilgan ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsad va vazifalarni hal qilishga qaratilgan bo‘lishi.

Muhim muammolarga bag‘ishlanishi va ular o‘yin davomida hal qilinishi.

Barkamol inson shaxsini tarbiyalash tamoyillariga, sharqona odob-axloq normalariga mos kelishi.

O‘yin strukturasi mantiqiy ketma-ketlikda bo‘lishi.

Mazkur darslarda didaktik prinsiplarga amal qilinishi va eng kam vaqt sarflagan holda ulkan samaraga erishish kerak.

DARS TAHLILLARI VA ULARNING NATIJAVIYLIGI

Dars tahlili va ularning turlari.

Dars tahlilidan maqsad nima? Darsning yutuqlari va kamchiliklari, kelgusida e'tiborga olinishi lozim bo'lgan vazifalar belgilanadi.

Tashkiliy ishlar, didaktik, psixologik, pedagogik, metodik, ilmiy va b.

Tashkiliy ishlar tahlili – xonaning darsga tayyorligi ko'zdan kechiriladi. O'quvchilarning davomati va darsga tayyorgarligi aniqlanadi. O'qituvchining tashqi qiyofasiga e'tibor qaratiladi.

Didaktik tahlilda quyidagilarga e'tibor qaratiladi – mavzuning izchilligi, oddiydan murakkabga tomon yo'nalishi. ko'rgazmaliligi, yangi axborotlarning zamonaviyligi va hayotiyligi, axborot texnologiyalardan foydalanish.

Mavzuning jonli va ravon tilda ochib berilishiga e'tiborning qaratilishi. Darslik va qo'shimcha ma'lumotlar bilan ishlash.

Metodik tahlil – o'quvchilarni faollashtirish, o'quvchilarning yoshi va shaxsiy-psixologik xususiyatlarini hisobga olinishi, ijodkorlik va uslubiy mahorat, pedagogik tajribalardan foydalanish, vaqtni to'g'ri taqsimlanganligi, mavzuni fanlararo bog'lanishiga e'tibor beriladi.

Psixologik tahlil – o‘quvchilarning yangi va avvalgi materiallarni esda saqlashlari, jamoadagi do‘stona muhit, fanga bo‘lgan qiziqishlari, mavzuga oid ma’naviy qadriyatlarning singdirilishi, hozirjavobligi, sezgir va topqirligi, idroki, o‘z oldilarida turgan mas’uliyatlariga nisbatan irodali yoki irodasizligi kabilarga e’tibor qaratiladi.

Pedagogik tahlil – o‘qituvchining umuminsoniy tarbiyaning tarkibiy qismlarini bera olishi, nutq madaniyati, o‘quvchilar bilan til topishish mahorati, axloqiy tarbiya g‘oyasining singdirilishi tahlil qilinadi.

Ilmiy tahlil – o‘qituvchining o‘z fani yangiliklaridan boxabarligi, mavzu mazmun mohiyatini jamiyatda amalga oshirilayotgan islohotlar bilan uyg‘unlashtira olishi, manbalardan maqsadli va o‘z o‘rnida foydalana olishiga e’tibor beriladi. Dars tahlili bo‘yicha yakuniy xulosa chiqarish va o‘qituvchiga zaruriy tavsiya berish maqsadga muvofiqdir.

Tahlil turlari	Yutug‘i	Kamchiligi	Tavsiya
Tashkiliy ishlar	Sinf xonasi gigienik talablarga mos		
Didaktik	Ko‘rgazmali vositalar...dan o‘z o‘rnida foydalanildi	AKT va EATR foydala-nilmadi	
Metodik	Mavzuni tushuntirish uchun tanlangan metod maqsadga muvofiq	Fanlararo integrat-siya ma-salalariga e’tibor berilmadi	O‘qish, musiqa darslari bilan bog‘lash. va b.
Pedagogik	O‘quvchilarni faollashtira oldi.		
Psixologik	Har bir o‘quvchiga individual yondashdi		
Ilmiy	O‘z fanini yaxshi biladi		
Yakuniy xulosa	1. AKT va EATR dan foydalanish.		

2-BOB.
NAMUNAVIY DARS ISHLANMALARI

1-MAVZU: VATAN ISHONCHI

Dars rejasi:

O‘zbekiston Respublikasining Mustaqillik bayrami hamda Bilimlar kuni bilan o‘quvchilarni tabriklash.

O‘quvchilar bilan tanishuv. Ularning qiziqishlari haqida so‘rash.

O‘zbekiston Respublikasi prezidentinig sovg‘alarini tarqatish. Prezident sovg‘alari nima uchun berilganligini tushuntirish.

Mavzu bo‘yicha ishlash jarayonida o‘quvchilar quyidagilarni bilib oladilar:

- bugun yoshlarga bildirilgan ishonch, yosh avlodning Vatani, ota-onasi oldidagi burchlari haqidagi tasavvurlarni shakllantiradi;
- nima uchun bilim olish kerak?
- kim bilim beradi?
- odamlar bilimlarni qaysi vositalar orqali oladilar?

Dars materiallari va jihozlari:

a) Didaktik jihozlar:

1. 1-sinf “Tarbiya” darsligi;
2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat ramzlari va boshqa mavzuga mos rasmlar

b) Texnik jihozlar:

Kompyuter, mavzuga oid videorolik va boshqalar. O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi.

Darsning maqsadi:

Ta’limiy maqsad:

– O‘quvchilarga davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan g‘amxo‘rlik va e’tiborni tushuntirish;

– yoshlarga bildirilgan ishonch, yosh avlodning Vatan, ota-ona, jamiyat oldidagi burchlari haqidagi tasavvurlarini shakllantirish;

Tarbiyaviy maqsad:

– ona-yurtga muhabbat, uning oldidagi mas’uliyat tuyg‘ularini rivojlantirish;

– nutq madaniyatini shakkantirish;

– kommunikativlikni oshirish:

– sinfda do‘stona muhitni shakllantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad:

Vatan, prezident, maktab, mustaqillik, bayram, bayroq, gerb, madhiya.

Darsning blok chizmasi:

№	Dars bosqichlari	Vaqt
I	Tashkiliy qism	3 daqiqa
II	O‘quvchilar bilan savol-javob o‘tkazish	10 daqiqa
III	Yangi mavzu bayoni	17 daqiqa
IV	O‘rganilgan mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
V	Dars yakunlarini chiqarish	3 daqiqa
VI	Uyga vazifa	2 daqiqa

Darsda tavsiya etiladigan metodlar.

“Aqliy hujum” metodi yaxshi samara beradi.

Uyga vazifa:


Yana qanday millat vakillarining salomlashish an’analarini bilasiz, kattalar bilan birgalikda topib keling.

O‘qituvchiga tavsiya: O‘quvchilar uchun uyga beriladigan vazifani qatorlarga bo‘lib berish, guruhga taqsimlagan holda salomlashish, xayrlashishga tegishli so‘zlarni berishi mumkin.

Qo‘shimcha topshiriq: *Kelgusi dars mavzusiga tayyorlanish uchun;*

1. Rasmlarga nom qo‘ying.
2. Kattalar yordamida ularning ketma-ketligini aniqlang va raqamlar bilan birlashtiring.
3. Birinchi qaysi rasmdan boshlar ekansiz?

1-maktabgacha ta’lim.
2-maktab.
3-partada o‘tirgan o‘quvchilar
4-oliy ta’lim
5-malakali mutaxassis



1 2 3 4 5

DARSLARNI TASHKIL QILISH YUZASIDAN TAVSIYALAR

Avvalgi sahifalarda dars ishlanmalari va darslarni maqsadini qo‘yish yuzasidan ma’lumotlar berdik. Har bir o‘qituvchining darsi o‘ziga xoslik tomonlarini inobatga olib, qolgan darslarda tavsiya etiladigan topshiriqlarni taklif etamiz.

2-MAVZU: SALOMLASHISH ODOBI

Quyida berilgan QR kod asosida videorolikdan foydalaning.

3-MAVZU: MENING ORZUYIM

Mavzu bo‘yicha ishlash jarayonida o‘quvchilar quyidagilarni bilib oladilar:

- bu darsda o‘quvchilar orzuga yetishish uchun nima qilishi kerak ekanligi haqidagi bilim va tushunchalarga ega bo‘ladilar;
- orzuga erishishda bilim egallash zarurligi;
- ko‘p kitob mutolaa qilish kerakligi bilib oladilar.

Darsda o‘rganiladigan asosiy atamalar va tushunchalar yozilgan kartochkalar.

Respublika bolalar kutubxonasida olingan videorolik asosida boshlanadi. O‘quvchining uyidagi darsxonasi. Unda bola uchun yaratilgan sharoitlar (xonadagi dars stoli, o‘quv qurollari, kitob javoni). Oila davrasida kitob mutolaasi jarayoni. Kitob surati (barcha orzularga eltuvchi yo‘l sifatida tasvirlab berish).

Darslik bilan ishlash: 10-11- betlarda berilgan rasm asosida savollar:

- Rasmda nimalarni ko‘ryapsiz?
- Uyda alohida darsxonangiz bormi?

• Darsxonangizda nimalar bo‘lishini xohlaysiz?

• Uyingizdagi kitob javonida qanday kitoblar bor?

• Sizga oiladagi kattalar qanday kitob o‘qib berishlarini xohlaysiz?

• Tasavvur qiling! Siz kitob do‘konidasiz, dastlab qaysi kitobni xarid qilgan bo‘lardingiz?

• Kelajakdagi orzularingiz?

• Sizning qanday orzularingiz bor?

Daftaringizga orzular zinasini chizing. Zinaning har bir pog‘onasiga nom qo‘ying. Har bir pog‘onani egallash uchun nima qilishingiz kerakligi haqida oilangiz a’zolari bilan suhbatlashing.

O‘tilgan mavzini mustahkamlash:

“T CHIZMA” metodi. Mazkur jadval orqali o‘qituvchi sinfxonadagi qizlar va o‘gil bolalarni ikki guruhga bo‘lib, ularning qanday orzusi borligi haqida yozib berishlarini so‘raydi.

Orzuyimdagi kasb va kitob (o‘g‘il bolalar)	Orzuyimdagi kasb va kitob (qizlar)
.....	.....
.....	.....

Topshiriq oxirida o‘qituvchi ikkala guruhning orzularidagi kasblar va kitoblar haqidagi fikrlarni umumlashtiradi.

Mavzu bo‘yicha ishlash jarayonida o‘quvchilar quyidagilarni bilib oladilar:

• bu darsda o‘quvchilar orzuga yetishish uchun nima qilishi kerak ekanligi haqidagi bilim va tushunchalarga ega bo‘ladilar;

- orzuga erishishda bilimlarni egallashning zarurligi;
- ko‘p kitob mutolaa qilish kerakligini bilib oladilar.



Uyga vazifa: berilgan topshiriqlar, savollar bo‘yicha o‘tkaziladi. “Orzuyimdagi kitob” mavzusi asosida rasm chizish.

O‘qituvchiga tavsiya: o‘quvchilar uchun uyga beriladigan vazifaga qo‘shimcha ravishda bilim haqida bir dona hikmat, maqolni yodlab kelishni bersa ham bo‘ladi.

O‘quvchilarning orzularini belgilashda maktab psixologi bilan hamkorlik qilish tavsiya etiladi.

Har qanday ijtimoiy voqelik o‘zining psixologik xarakteriga ega. Ijtimoiy qonuniyatlar kishilarning faoliyatidan tashqarida vujudga kelmaydi, balki ularning ongi va irodasi ta’sirida vujudga keladi. Ikkinchi tomondan esa kishilar birgalikdagi mehnatlari jarayonida bir-birlari bilan o‘ziga xos tarzda munosabatga kiradilar. Muloqotga kirishadilar va o‘zaro ta’sir o‘tkazadilar. O‘qituvchi tomonidan shaxs va jamoaga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish samaradorligini oshirish, ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish yo‘llarini ochib beradi. Guruh a’zolarining bir-birini yaxshi bilishlari, bir-birlarining dunyoqarashlari, hayotiy prinsiplari, qadriyatlarini yaxshi tasavvur qilishlari uyushqoqlikning birinchi omilidir. Ikkinchi va asosiy omil-bu o‘sha guruhning birlashtirib turgan faoliyat maqsadlarini, uning yo‘nalishi va mazmunini bilishdagi g‘oyaviy birlikdir.

4-5-MAVZU: BILIM OLISH SIRLARI

Darsning maqsadi:
– o‘quvchilarga bilim nima va u insonga nima uchun kerak ekanligi haqida tushuncha berish;
– yangi bilimlarga bo‘lgan qiziqishni rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirish, so‘z boyligini oshirishda davom etish;
– o‘qishga bo‘lgan mehr, tirishqoqlik, sabr bilan bilim o‘rganish baxt va farovonlikka olib borishini anglash kabi fazilatlarni rivojlantirishga erishish.

Darsga motivatsiya. O‘quvchilar e’tiborini faollashtirish:

- “Muvaffaqiyat va yutuqlar dunyosini ochadigan kalitni bilasizmi?”
- *Bolalar muvaffaqiyat va imkoniyatlar eshigini qanday kalit bilan ochishimiz mumkin?*
- “Bizga nima uchun bilim kerak?”
- “Biz bilimlarni qayerdan olamiz?”
- “Bizning bilimimiz bizni qayerga olib boradi?”
- “Biz bilimsiz yashay olamizmi?”
- “Bilim olish uchun nima qilish kerak?”
- “Ilm olish uchun qanday fazilatlarga ega bo‘lish kerak?”

O‘qituvchi navbatma-navbat o‘quvchilardan berilgan savollarning javobini so‘raydi. Bildirilgan fikrlarni umumlashtiradi: “Endi men sizlarga bilim olish uchun maktabga borgan sevimli ertak qahramonimiz – Buratino haqidagi qisqa videolavhani

ko‘rishni taklif qilaman. Buratino maktabga yo‘l oldi. Ammo ... unga nima bo‘ldi?”

1. Buratinoning sarguzashtlarini diqqat bilan kuzating.

2. Sabr-bardosh va tirishqoqlik bilan bilim olishga intiladigan ertak qahramonlarini eslang.

3. Keyingi darsga o‘zingiz sevgan ertak qahramonlari haqidagi kitoblarni olib keling.

O‘quvchilar “Buratinoning sarguzashtlari” filmidan videolavhani tomosha qilishadi. Maktabga yo‘l olgan Buratino o‘qish o‘rniga betashvish hayotni va o‘yin-kulgini afzal ko‘rganligi sababli noxush holatga tushib qoldi. Video 2-3 daqiqa davom etadi. Videoda Papa Karlo nimchasini sotib, uning puliga Buratino uchun Alifbe kitobini sotib olgan, maktabga yo‘l olgan bosh qahramon adashib, tulki Alisa va mushuk Bazilioning qo‘liga tushib qoladi. Buratinoni qutqaradilar, ammo u bungacha xavfli yo‘ldan o‘tadi. Va yakuniy xulosa: hech kim sizni aldamasligi va xavfli vaziyatga tushib qolmaslik uchun bilimga ega bo‘lish kerak.

O‘qituvchi: Bolalar, ushbu videoni ko‘rib qanday xulosaga keldingiz? (O‘quvchilar javob berishadi).

O‘qituvchi: Darsning boshida: “Muvaffaqiyat va yutuqlar dunyosini ochadigan kalitni bilasizmi?”, – degan savol berilgan edi. Keling, bunga javob beramiz. O‘quvchilar javob beradilar.

Namunaviy usuldan foydalanish sharti

Yangi mavzuni **“Taqqoslash”** usuli yordamida tahlil qilish. O‘quvchilarga quyidagicha tayyorlangan kartochkalar tarqatiladi.

Uyda nima qilish	Ko‘chada
Sport zalidan chiqqanda	**Uylarni yig‘ishtirganda**
Ovqatlanishdan avval	**Uxlashdan oldin**

O‘tilgan mavzuni mustahkamlash:

O‘qituvchi o‘quvchilarning yangi o‘tilgan mavzu bo‘yicha berilgan javoblarini baholaydi. O‘quvchilarda yangi mavzu bo‘yicha paydo bo‘lgan savollarga javob beradi.

Mavzu bo‘yicha ishlash jarayonida o‘quvchilar quyidagilarni bilib oladilar:

- o‘quvchilar ertaklarni yaxshi va yomon odatlar, nega bu odatlarni bilishi kerak, yaxshi odatlarni o‘zlashtirib qanday marralarga erishish haqidagi tushunchalarga ega bo‘ladi;
- nima uchun bilim olish kerak;
- kim bilim beradi;
- o‘quvchilar bilimlarni qaysi vositalar orqali oladilar.

Uyga vazifa:

Dars tugadi. E’tiboringiz uchun barchangizga rahmat. Keyingi darsga har bir o‘quvchi o‘zi sevgan ertak qahramonlari haqida bittadan kitob olib keladi.

Qo‘shimcha o‘qish uchun *(O‘qituvchi tomonidan o‘qib berish tavsiya etiladi)*:

Buratino ertagi haqida nimalarni bilamiz?

Barchamizga ma’lum va mashhur “Pinokkio” ertagining muallifi Italiya bolalar yozuvchisi Karlo Lorensi hisoblanadi. U Karlo Kollodi nomi ostida bolalar uchun asarlar yozgan. O‘zining “Pinokkio” nomli taniqli ertagini 1880-yilda yozishni boshlagan. Hozirgi kunga kelib mashhur va kulgili hamda achinish hissini o‘zida qamrab olgan “Pinokkio, yog‘och qo‘g‘irchoqning sayohatlari” ertagi birinchi marotaba 1881-yilda Rim (Italiya)da “Bolalar uchun gazetalar”ning sahifalarida chop etila boshlaydi. 2 yildan so‘ng esa alohida nashr bo‘lib chiqadi. “Pinokkio” dunyo adabiyotining bolalar uchun mo‘ljallangan eng sara ertagi hisoblanadi. Uzunburun, g‘amxo‘r, injiq, aqlli, tentak, yig‘loqi hamda kulgili qahramonni butun dunyo biladi. Karlo Kollodining ertagi dunyoning 87 tiliga tarjima qilingan.

Rus yozuvchisi Aleksey Tolstoy 1936-yilda o‘zining yangi turdagi “Oltin kalitcha yoki Buratinoning sayohatlari” nomli ertagini yaratadi. Ushbu yangi turdagi ertak asosiy qahramon rolini o‘zgartirdi va yangi qahramonlarni o‘ziga jalb etdi. “Buratino” ham qisqa vaqtlar ichida taniqli bo‘ldi. U ko‘plab davomli ertaklar, filmlar, teatrlarning sevimli qahramoniga aylandi… “Oltin kalit yoki Buratinoning boshidan kechirganlari” nomli ertak-qissa Karlo Kollodining “Pinokkioning sarguzashtlari. Yog‘och qo‘g‘irchoq hikoyasi” nomli asaridan olingan. Ertak-qissada Karlo ota yog‘och go‘ladan uzun burunli qo‘g‘irchoqni yasashi va unga Buratino deb nom berishi haqida hikoya qilinadi.

6-MAVZU: MAKTABIM – GULSHANIM

O‘quvchilarni fikrlashga chorlovchi jarayon:

Bola yo‘lakda ketayotib, qo‘lidagi qog‘oz parchalarini yo‘lakka tashladi. Buni yo‘lakni tozalayotgan farrosh xola ko‘rdi. U bolaga ma’yus holatda qaradi-yu, ammo hech narsa demadi. Buni ko‘rib turgan ikkinchi bola esa qog‘oz bo‘laklarini yig‘ib, farrosh xola oldiga borib: “Do‘stim buni bexosdan qildi, iltimos uni kechiring”, – dedi. Do‘stiga qarab: “Maktabimizdagi ustozlar bilan birga mana shu farrosh xola ham biz uchun, biz yaxshi o‘qishimiz uchun mehnat qilishmoqda, biz ularni hurmat qilishimiz kerak” – dedi.

Bola qilgan ishidan uyaldi va xatosini tushunib yetdi. (Ikki holat ustoz va o‘quvchilar tomonidan tahlil qilinadi va taqqoslanadi).

2. Kutubxonada. *(darslikdagi ibratli hikoya)*



O‘quvchilar kutubxonaga kirdilar. Kutubxonachi bolalarni iliq kutib oldi. Kutubxona nihoyatda ozoda, kitoblar javonlarda bir tekisda terilgan. Bolalar o‘zlari istagan kitoblarni olib, foydalana boshladilar.

Birpasdan so‘ng kutubxonadagi javonlar betartib, kitoblar partalar ustida yoyilib yotardi.

Dars jarayonida hikoya savollar orqali tahlil qilinadi.

- Bolalar kutubxonadan to‘g‘ri foydalana oldilarmi?

- Kutubxonadagi kitoblar kimning mulki?
- Kutubxonadagi kitoblardan foydalanishda nimalarga amal qilish kerak?
- Keyingi darsda o‘qituvchi o‘quvchilarning hikoyadan olgan xulosalarini aniqlash maqsadida ularni kutubxonaga olib boradi.

U yerda kitoblardan qanday foydalanayotganliklari kutubxonachi va o‘qituvchi tomonidan kuzatib boriladi.

O‘quvchilar o‘rtasida inson mehnati qadriga yetish va maktab mulki, uni asrash mas’uliyati o‘quvchilar bilan muhokama qilinadi.

- Shu insonlarning mehnatiga qanday javob qaytarishimiz kerak?
- Har biringiz maktabingizga qanday hissa qo‘sha olasiz?

“Maktabning egasi kim?” mavzusida o‘qituvchi kichik matn tuzib (maktabdagi ishchi xodimlar va ularning mehnati: musiqa, jismoniy tarbiya, tasviriy san’at kabi fan o‘qituvchilari, kutubxonachi, maktab hamshirasi, oshpaz, farrosh xizmatlari) aytib beradi.

Bolalar bizning maktabimiz bilan tanishdingizmi?

Siz-chi, siz maktabingizni qanday saqlayapsiz?

O‘quvchilar maktabda quyidagi tartib qoidalarga amal qilishi lozim:

- *Salomlashish;*
- *Kech qolmaslik;*
- *Xushmuomala bo‘lish;*
- *O‘zaro hurmat;*

- *Ozodalikka rioya etish;*
- *Darsga tayyor holatda kelish;*
- *Maktab mulkini asrash;*
- *Farroshlar mehnatini qadrlash;*
- *Yo‘laklarda harakatlanishda “o‘ng tomon” qoidasiga amal qilish;*
- *Xonadan chiqayotganlarga yo‘l berish;*
- *O‘z-o‘ziga xizmat qilish.*

Namunaviy usuldan foydalanish sharti

Yangi mavzuni **“Zinalar osha”** usuli yordamida mustahkamlash. O‘quvchilarga quyidagicha tayyorlangan kartochkalar tarqatiladi.

Har bir o‘quvchi bittadan savolga javob berib, zinalarni oshib o‘taveradilar.

Asosiy qoidalar nima uchun kerak?	
Yaxshi o‘qishim uchun	
Ota-onam xursand bo‘lishi uchun	
Sinfdoshlarimga o‘rnak bo‘lish uchun	
Yaxshi inson bo‘lishim uchun	
?????	
?????	

Aziz o‘quvchilar! Yana bir muhim qoida borki, bu ham bo‘lsa maktab va xonadonimizdagi hojatxonalardan to‘g‘ri foydalish qoidalaridir. Ularni diqqat bilan o‘rganib, doimo bunga amal qilishimiz lozim bo‘ladi:

1. Hojatxonaga chap oyog‘ingiz bilan kiring, o‘ng oyog‘ingiz bilan chiqing.
2. Ishlatilgan qog‘ozlarni maxsus idishga tashlang.
3. Qo‘lingizni sovunlab yuving.
4. Hojatxonada gaplashmang.

BIZ MAKTABDA QANDAY TARTIB-QOIDALARGA AMAL QILAMIZ?

Topshiriqni bajarish uchun namunaviy usul “MARRA SARI OLG‘A” metodi

“Marra sari olg‘a” degan metod bo‘yicha savollardan tashkil topgan o‘yinlar amalga oshiriladi. Bilim cho‘qqilarini zabt etish uchun marra sari olg‘a!

Izoh: Aylana yoki to‘rtburchak, uchburchak ichiga savol yoziladi, guruhlardan chiqqan o‘quvchilar birin-ketin savolga javob beradi, javob berolmagan yo‘lda qoladi, javob beradigan o‘quvchi marra tomon ketaveradi.

- *Salomlashish;*
- *Kech qolmaslik;*
- *Xushmuomala bo‘lish;*
- *O‘zaro hurmat;*
- *Ozodalikka rioya etish;*
- *Darsga tayyor holatda kelish;*
- *Maktab mulkini asrash;*
- *Farroshlar mehnatini qadrlash;*
- *Yo‘laklarda harakatlanishda “o‘ng tomon” qoidasiga amal qilish;*
- *Xonadan chiqayotganlarga yo‘l berish;*
- *O‘z-o‘ziga xizmat qilish.*

Mavzu bo‘yicha ishlash jarayonida o‘quvchilar quyidagilarni bilib oladilar:

- maktab va ilm go‘shasi tushunchalariga ega bo‘lishadi;
- nima uchun bilim olish kerak?
- kim bilim beradi?
- o‘quvchilar bilimlarni qaysi vositalar orqali oladilar?

Uyga vazifa:

“Maktabim mening nigohimda” mavzusida rasm chizib kelish.

O‘qituvchiga tavsiya: o‘quvchilar uchun uyga beriladigan vazifani qatorlarga bo‘lib berish, guruhga taqsimlagan holda berishi mumkin.

Qo‘shimcha o‘qish uchun *(O‘qituvchi tomonidan o‘qib berish tavsiya etiladi)*:

Dastlabki maktablar qachon paydo bo‘lgan?

Maktab – o‘qituvchi rahbarligida yosh avlodga bilim beriladigan va tarbiyaviy ishlar olib boriladigan o‘quv tarbiya muassasasidir. Ilk maktablar qadimgi Sharq mamlakatlari (Xitoy, Bobil, Misr va boshqalar) da paydo bo‘lgan bo‘lsa, Yevropada dastlabki maktablar Yunonistonda (hozirgi Gretsiya), Qadimgi Rimda (Italiya) vujudga kelgan. O‘rta Osiyoda, xususan, bizning yurtimizda qadimda boshlang‘ich ta’lim beradigan maktablar “maktabxona” deb nomlangan. O‘rta Osiyoda “Madrasa”, “Qorixona” deb nomlangan maktablar ham bo‘lgan. Maktablarda ta’limning asosiy shakli – dars hisoblanadi. Maktab atamasi yana bir ma’noda, ya’ni, rang-tasvir, haykaltaroshlikka, o‘ziga xosligi aniq ifodalangan shahar yoki ma’lum viloyat me’morligiga, u yoki bu darajada aniq, uslubiy va tarixiy chegaralariga ega bo‘lgan butun bir mamlakatning milliy san’atiga nisbatan ham qo‘llanadi (masalan, Hirot miniatyura maktabi). Hozirda O‘zbekistonda 10 mingga yaqin umumta’lim maktablari mavjud bo‘lib, ularda ta’lim olayotgan o‘quvchilar soni 6 milliondan ortiqni tashkil etadi.

Aziz o‘quvchilar! Siz ta’lim olayotgan ushbu muqaddas o‘quv maskani ulardan biri hisoblanadi. Bunday yorug‘, shinam ta’lim dargohida mehribon ustoz va murabbiylar sizlarga turli fanlardan saboq berishadi. Umid qilamizki, sizlar ushbu zaruriy bilimlarni o‘zlashtirib, aqlli, odobli bo‘lib voyaga yetasizlar.

O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi ma’lumotlaridan foydalanildi.

7-8-MAVZU: MENING SEVIMLI ERTAK QAHRAMONLARIM

Darsning maqsadi:

– o‘quvchilarga yangi ma’lumotlarni muntazam o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj to‘g‘risida bilim berish.

– og‘zaki nutqni rivojlantirish, yangi so‘zlarni o‘rganish va yodlashni taklif etish orqali so‘z boyligini oshirishni davom ettirishi;

– o‘quv va ta’lim texnologiyalaridan foydalanib, o‘quvchilarda birdamlik hissini, jamoada ishlash, bir-birini qo‘llab-quvvatlash, eshitish va eshita olish qobiliyatlarini yanada tarbiyalash.

Mavzu bo‘yicha ishlash jarayonida o‘quvchilar quyidagilarni bilib oladilar:

- o‘quvchilar birdamlik hissi, jamoada ishlash, bir-birini qo‘llab-quvvatlash singari ezgu ijobiy qobiliyatlar to‘g‘risida bilib oladilar;
- nima uchun bilim olish kerakligi;
- kim bilim berishi mumkinligi;
- o‘quvchilar bilimlarni qaysi vositalar orqali olishlari haqidagi bilimga ega.

Darsga tayyorlik jarayoni. O‘qituvchi imkon qadar sinfdagi o‘quvchilarning o‘tirish vaziyatini o‘zgartiradi. Partalar yarim doira shaklida joylashtiriladi. Mening sevimli ertagim **“Ilm afzal”**. Chunki Odilshoh o‘zining ilmi va aqli bilan butun mamlakatni dushman hujumidan qutqarib qoladi. Sizning sevimli ertagingiz-chi, u sizga nima uchun yoqadi?

Bor ekanda yoq ekan,
Och ekanda to‘q ekan.
Bo‘ri bakovul ekan,
Tulki yasovul ekan.
Qarg‘a qaqimchi ekan,
Chumchuq chaqimchi ekan.
G‘oz karnaychi ekan,
O‘rdak surnaychi ekan.
Toshbaqa torazibon ekan,
Qurbaqa undan qarzdor ekan.
Qirg‘ovul qizil ekan,
Dumlari uzun ekan,
Tog‘dan tog‘ga qo‘ngan ekan,
Oyoqlari singan ekan...

Qadim zamonda bitta chol bo‘lgan ekan. U bir kuni to‘rga tushgan Laylakvoyni ozod qilibdi…

Ertakning davomini rasmlarga qarab o‘zingiz ayting. Nima deb o‘ylaysiz, birovning narsasini so‘ramasdan olish mumkinmi?

Ertakdagi yolg‘onchilik, ochko‘zlik qanday oqibatlarga olib keldi?

Asosiy qismda o‘qituvchi bolalarning fikrini va javoblarini umumlashtiradi. Hamda ularga bilim, qat’iyatlilik, zukkolik, epchillik, mehribonlik va boshqa yaxshi fazilatlarga ega bo‘lgan, qiyinchiliklarni yenggan, yovuzlikka qarshi kurashib g‘alabaga erishgan, boshqalarga yordam berishga tayyor bo‘lgan sevimli ertak qahramonlaringiz haqidagi hikoyalarni tinglashni taklif qilishi ham mumkin.

O‘quvchilar o‘zlari olib kelgan kitoblarini qo‘llariga olib navbatma-navbat sevimli qahra-

monlarining mehribonlik, jasorat, rostgo‘ylik, qat’iyatlilik, bilim olishga intilish kabi fe’l-atvorlari to‘g‘risida gapirib berishadi.

O‘qituvchi o‘quvchilarni tinglagach ertak va hikoyalardan qanday xulosa qildingiz? – deb bolalardan so‘rashi kerak

O‘qituvchining yordami bilan bolalar o‘zlarining xulosalarini chiqaradilar.

O‘quvchilarning javoblari jarayonida o‘qituvchi bolalarni hayot davomida muntazam ravishda bilim olish kerak degan xulosaga olib borishi zarur.

Dars yakunida, taxminan besh daqiqa davomida o‘qituvchi rahbarligida o‘quvchilar viktorina o‘tkazishi mumkin. Viktorinaning sharti quyidagicha: o‘qituvchi turli xil bilim sohalariga tegishli savollarni tuzadi va bolalardan birma-bir so‘raydi. O‘quvchilar ularga tezkorlik bilan javob berishlari kerak. Har safar savollar murakkablashadi. Agar ketma-ket uch yoki to‘rt dars davomida o‘quvchi g‘alaba qozonsa, unga “Bilim uchun rag‘bat” sifatida kitob beriladi.

Mavzuni rivojlantiruvchi savollar:

- Qorning rangi qanaqa?
- Oy kattami yoki Quyosh kattami?
- Ilonning nechta panjasi bor?
- Laylak nimani yaxshi ko‘radi?
- Qachon sovuq bo‘ladi – qishdami yoki yozdami? va hokazo.

Bunday o‘yinlar muntazam bo‘lishi kerak. Bu bolalarga o‘z-o‘zini rivojlantirish uchun intilishlarini kuchaytiradi. Rag‘bat sifatida, imkon darajasida bir guruh g‘oliblarni muzeyga olib kelish mumkin, yarim yillik yakunida “Alifbe” bayrami kuni maxsus faxriy yorliqlar taqdim etish va boshqa rag‘bat usullarini qo‘llash mumkin.





Ikkala suratdagi multfilm qahramonlari og‘ir vaziyatlardan qanday chiqadilar?

“CHARXPALAK” o‘yini

Charxpalak o‘yinida o‘quvchilarni ikki guruhga ajratib, ishtirok etishadi. O‘quvchilar o‘zlari bilgan ertak qahramonlari nomini yozadi.

Keyin ular har bir topgan hikoyasi nomini navbat bilan aytadi. Oxirida o‘qituvchi o‘quvchilarning nega aynan bu ertak nomlarini aytganligini asoslab beradi.



Uyga vazifa:
Biror bir ertak qahramoni tasvirlangan rasm chizib kelish.

O‘qituvchiga tavsiya: uyga beriladigan vazifani uyda kattalar ko‘magida bajarishni tavsiya etishi va erkin rasm chizishini aytishi mumkin.

Qo‘shimcha o‘qish uchun *(O‘qituvchi tomonidan o‘qib berish tavsiya etiladi)*:

Ertakni kim yaratgan?

Ertak – xalq og‘zaki ijodining asosiy janrlaridan biri; to‘qima va uydirmaga asoslangan sehrli sarguzasht, shuningdek, kundalik hayotdagi ayrim

holatlarni tasvirlaydigan badiiy asar hisoblanadi. Misol uchun, Koshg‘ariyning “Devon-u lug‘otit turk” asarida etuk shaklida uchraydi va biror voqeani og‘zaki tarzda hikoya qilish ma’nosini bildiradi.

Aziz o‘quvchilar! Bilasizlarmi, ertak respublikamizning turli viloyatlarida turlicha nomlanadi. Masalan, ertak Surxondaryo, Samarqand, Farg‘ona xalqlari orasida matal, Buxoro atrofidagi tuman va qishloqlarda ushuk, Xorazmda varsaqi, Toshkent shahri va uning atrofida cho‘pchak deb ataladi.

Ertakda hayotdagi haqiqatlarning xayoliy va hayotiy uydirmalar asosida tasvirlanishi, uning tilsim va sehr vositalariga asoslanishi, voqea va harakatlarning ajoyib-g‘aroyib holatlarda kechishi, qahramonlarning g‘ayritabiiy jasorati bilan o‘quvchini beixtiyor o‘ziga jalb etadi. Shunisi bilan qiziqarlidir. Ertaklar asosan, ikki yo‘nalishda, ya’ni xayoliy uydirmalar asosida yoki hayotiy uydirmalar zamirida bo‘ladi. Xayoliy uydirmalar asosidagi ertak syujeti mo‘jizali, sehrli; hayotiy uydirmalarga asoslangan ertak syujeti esa hayotiy tarzda bo‘lib, unda bo‘lib o‘tgan voqea-hodisalar tasvirlanadi.

Ertakda, asosan, uch maqsad hikoya qilinadi. Birinchisida ideal qahramonning jasorati, yovuz kuchlarga qarshi chiqib, xalq manfaatini himoya qilishi, ikkinchisida, asosan, bosh qahramonning o‘zga yurt malikalariga yoki parizodlariga oshiq bo‘lib uylanishi, kasalga dori topishi, ajdar va devlar olib qochgan kishilarni ozod qilishi, uchinchisida esa adolatsizlikka, zulmga qarshi chiqishi kabi maqsadlar bayon qilinadi. Birinchi maqsad pahlavonning faol harakati va g‘ayritabiiy kuch-qud-

rati bilan amalga oshsa, ikkinchi maqsad passiv qahramonga yordam beruvchi tilsim vositalari yordamida, uchinchi maqsad esa bosh qahramonning aql-idroki, zukkoligi, uddaburonligi, odilligi, jasorati, tadbirkorligi kabi fazilatlari bilan amalga oshadi.

Ertak uslubiga ko‘ra, shartli ravishda hayvonlar haqidagi ertaklar, sehrli ertaklar, maishiy ertaklar, hajviy ertaklarga bo‘linadi.

Hayvonlar haqidagi ertaklarning bir turi majoziy ertaklar bo‘lib, ularning (“Bo‘ri bilan tulki”, “Tulkining taqsimoti”, “Ikki boyqush” va boshqalar) syujeti asosida ko‘chma ma’no yotadi. Masalan, laqmalik va ochko‘zlik bo‘ri orqali, ayyorlik va tilyog‘lamachilik tulki orqali ifodalangan.

Sehrli ertaklarda voqealar sehr-jodu, fantastik uydirmalar asosiga qurilgan bo‘ladi. Bularda pahlavonlik va qahramonlik madh etiladi (“Yalmog‘iz”, “Kenja botir” va boshqalar).

Maishiy ertaklarda ko‘proq zulm va adolatsizlik qoralanadi (“Uch og‘a-ini botirlar”, “Oygul bilan Baxtiyor”, “Tohir va Zuhra”, “Farhod va Shirin”, “Zolim podsho” va boshqalar). Masalan, “Uch og‘a-ini botirlar” ertagi odatdagidek ota nasihati bilan boshlanadi. Bunda ba’zan ota kambag‘al, lekin hayot tajribalariga boy bo‘lgan shaxs, yoki shoh bo‘lib, o‘g‘illari shahzodalardir. Botirlar obrazida axloq va odobning go‘zal namunasi, odamiylik, donishmandlik, jasurlik kabi sifatlar ko‘rinsa, shahzodalar qiyofasida mol-mulk to‘plash xayolida har qanday yomon niyatlardan qaytmaydigan yolg‘onchi, johil kishilar obrazi gavdalangan. O‘ziga xos tarbiya vositasi bo‘lgan ertaklar bolajonlar uchun juda qiziqarli va qadrlidir.

E’tiborli jihati, har doim ertaklarda insonparvarlik, Vatanga muhabbat, rostgo‘ylik, halollik tuyg‘ulariga ko‘proq to‘xtalinib, har bir ertak yaxshilikning yomonlik ustidan qilgan g‘alabasi bilan tugaydi. “…Shunday qilib ular murod-maqsadiga yetibdi” degan iborani deyarli barcha ertaklarda uchratish mumkin. Bola ertak orqali yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlikni bir-biridan farqlashni o‘rganadi. Xalq og‘zaki ijodining yorqin namunasi bo‘lmish ertaklar faqat tarbiya vositasi emas, balki ota-ona va farzandni bir-biriga yurakdan yaqinlashtiruvchi ko‘prik hamdir.

O‘zbek milliy ertaklarining aksariyati “Bir bor ekan, bir yo‘q ekan”, deb boshlanadi, eng asosiy voqealar “yo‘l yuribdi, mo‘l yuribdi”dan keyingi vaziyatga o‘tiladi. “Qahramonlar taqdiri nima kechdi ekan?” degan savolga ertak yakunida albatta “murod va maqsadiga yetibdi” tarzida javob olinadi.

Demak, ertaklar siz aziz bolajonlarning go‘zal xulqli, chuqur bilimli, tarbiyali, vatanparvar, jasur insonlar bo‘lib yetishishlaringizda katta yordam beradi. Tilagimiz, hamisha ertak bilan oshno bo‘ling va o‘zingizning shaxsiy kutubxonangizga o‘zbek va jahon xalq ertaklarini to‘plang. Bir-biringizga bunday kitoblarni sovg‘a qiling.

9-10-MAVZU: HAR NARSANING O‘Z O‘LCHOVI BOR

Darsning maqsadi:
O‘quvchilarga vaqtning qadriga yetish, vaqtdan unumli foydalanish, bo‘sh vaqtni faqat mazmunli va foydali ishlarga sarflash haqida ma’lumot berish. O‘quvchilarning vaqt qadri va vaqt o‘lchovi haqidagi bilimlarini mustahkamlash.

Mavzu bo‘yicha ishlash jarayonida o‘quvchilar quyidagilarni bilib oladilar:

• vaqtdan unumli foydalanish, vaqtni faqat mazmunli va foydali ishlarga sarflash bo‘yicha bilimga ega bo‘ladi; o‘quvchilar bilimlarni qaysi vositalar orqali oladilar?

Ushbu darsni maktab hovlisida tashkil etish ham mumkin. O‘qituvchi bu mavzuda bolalarni e’tiborini vaqt tushunchasiga qaratishi kerak bo‘ladi. Vaqt bilan bog‘liq savollar tuzish tavsiya etiladi.

Masalan: suyuqlikni nima bilan o‘lchaymiz? uzunlikni-chi? Bir kunlik vaqtimizni nima bilan o‘lchaymiz? va hokazo.

Darslikdagi savollardan foydalanish ham mumkin.

O‘quvchilarga hovlidagi gullar, daraxtlarni ko‘rsatib,

• Bolalar, bitta gulni o‘stirishga qancha **vaqt** kerak?

• Gullarni **vaqt**ida parvarish qilmasak, ular nobud bo‘lishi mumkin?

Vaqt tushunchasi yuzasidan bildirilgan fikrlar umumlashtiriladi. Bunda darslikning 27-betida ma'naviyat xazinasidagi hikmatlardan fodalanish mumkin. "To'g'ri taqsimlanmagan vaqt uvol bo'ladi. Chunki vaqtni orqaga qaytarib bo'lmaydi." Bolalarning bilimini mustahkamlash uchun 26-27-betlardagi rasmlarni ketma-ketlikda joylashtirish taklif qilnadi.

Ushbu mashg'ulotni guruhlarda bajarish ham mumkin.

Guruhlarga birinchi topshiriq:

Kun tartibiga rioya qilasizmi?
Kun tartibi nima uchun kerak?
Kun tartibi har kuni bir xil bo'ladimi?
Sizning kun tartibingiz qanday?
Ertalab soat nechida uyg'onasiz?
Sizni kim uyg'otadi?
Siz bo'sh vaqtingizdan qanday foydalanasiz?

O'qituvchi kun tartibi chizilgan rasmlarni be-tartib joylashtiradi. O'quvchilar ko'magida sxema ko'rinishida tartibga keltiriladi. Shu asosida xulo-salanadi.

Birinchi topshiriq yuzasidan xulosa:

Kun tartibiga rioya qilsak vaqtimiz tejaladi. Yana boshqa fikrlar ham qo'shish mumkin.

Guruhlarga ikkinchi topshiriq:

Darslikning 28- va 29-betlarida berilgan rasmlar bilan ishlash.

– Vaqtimizni qanday tejash va undan oqilona foydalanishni bilib oldik. Yana nimalarni tejash mumkin?

– tabiiy boyliklarga misol ayting-chi? ularning rasmini chiza olasizmi?

Guruhlarga avvaldan tayyorlangan qog‘ozlarga tabiiy boyliklarning rasmini chizish topshiriladi. Har bir guruh chizgan rasmini izohlab berishi kerak.

O‘quvchilarning javoblari umumlashtiriladi. Tabiiy biyliklar behuda sarf qilinsa, uvol bo‘lishini tushuntiradi. Baraka tejamkorlikda ekanligi, suvni tejamaslikning oqibati sifatida Orol dengizining qurishi haqida ma’lumot beradi.

Dars yakunda o‘qituvchi Har qanday isrofgar – odamlarning dushmani. Har bir tejamkor – o‘z Vatanini sevuvchi kishi ekanligini tushunturish lozim.

O‘qituvchiga tavsiya: “***LUG‘AT***” metodidan foydalanish ham mumkin.

O‘tilgan mavzuni mustahkamlash uchun “Lug‘at” metodidan foydalanamiz. O‘qituvchi o‘quvchilarni ikki yoki undan ortiq guruhlarga bo‘ladi. Guruhlarga berilgan bo‘sh qog‘oz ichiga o‘qituvchi o‘zi xohlagan harf bilan kun tartibi bilan boshlanadigan kundalik ishi yoki mavzuga oid tushuncha yozishni topshiradi.

Qaysi vaqt kattalarga yordam berasiz?

Maktabdan qaytganda	
Ko‘chadan uyga kirganda	

Qaysi vaqt sport bilan shug‘ullanasiz?

Sport zalidan chiqqanda	
Uylarni yig‘ishtriganda	

Qaysi vaqt dars tayyorlaysiz?

Ovqatlanishdan avval	
Uxlashdan oldin	

Uyga vazifa:
“Siz vaqtni qanday tasavvur qilasiz?” mavzusida kattalar ko‘magida rasm chizing.

Qo‘shimcha o‘qish uchun *(O‘qituvchi tomonidan o‘qib berish tavsiya etiladi)*:

O‘zbekistondagi eng katta dengiz – dunyoda nechanchi o‘rinda turadi?

Orol dengizi – O‘rta Osiyodagi eng katta dengiz hisoblanardi. Hududlarni egallashi jihatdan Orol dengizining yarmidan ko‘proq janubi-g‘arbiy qismi O‘zbekiston Respublikasi (Qoraqalpog‘iston), shimoli-sharqiy qismi Qozog‘iston hududida joylashgan.

U kattaligi jihatidan dunyoda to‘rtinchi (Kaspiy dengizi, Amerikadagi Yuqori ko‘l va Afrikadagi Viktoriya ko‘lidan keyin) o‘rinda edi. Uzunligi 428 km, eng keng joyi 235 km. bo‘lgan. Havzasining kattaligi uchun dengiz deb atalgan.

Orolbo‘yi hududi o‘zining xilma-xil hayvonot va o‘simlik dunyosiga ega bo‘lib, ushbu havzada 38 turdagi baliq va kamyob hayvonlar mavjud bo‘lgan.

Dengizga Amudaryo bilan Sirdaryo quyiladi. Iqlimiy o‘zgarishlar natijasida Orol dengizi suvining sathi yillar davomida o‘zgarib turgan. Orol dengizida suv sathining yil davomida o‘zgarib turishi Amudaryo va Sirdaryoning bahor-yoz paytlarida toshishi bilan bog‘liq. Dengiz suvi, ayniqsa,

o‘rta qismi juda tiniq. Suvi, xususan, qishda tiniq bo‘ladi. Yoz oylarida ham 24 metr chuqurlikkacha dengizning tubi ko‘rinadi. Suvining rangi ko‘pgina qismida ko‘k, qirg‘oqlariga yaqini ko‘kimtir tusda. Orol dengizi atrofida aholi kam bo‘lgan. Aholi, asosan, baliqchilik bilan va, qisman, chorvachilik, sabzavot-polizchilik bilan shug‘ullangan.

Hozirgi kunda Orol dengizi 3 bo‘lakka bo‘lingan: birinchisi – kichik va sayoz shimoliy qismi; ikkinchisi – nisbatan kattaroq maydonga ega bo‘lgan va sayoz sharqiy qismi; uchinchisi – eng chuqur hisoblangan g‘arbiy qismi.

1993-yilda qardosh davlatlar – Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston hamda O‘zbekiston ishtirokida Orolni Qutqarish Xalqaro Jamg‘armasi tuzildi. 2018-yilda Davlatimiz rahbari tashabbusi va qarori asosida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Orolbo‘yi xalqaro innovatsiya markazi tashkil qilindi.

Bugungi kunda Orol dengizining suvi qurigan yerlarida ko‘plab ko‘chat ekilib, yashil hudud – o‘rmonzor bunyod etilgan. Yana bir qiziqarli ma’lumot, hozirda orol ichida yana bitta orolcha bor. Unda 21 xildagi manzarali va mevali daraxt, butalar ekilgan. Buni ekishdan maqsad orolni o‘tlar bilan qoplash, chorva uchun ozuqa yetishtirish, eng muhimi Orol dengizi atrofini obod qilib, uni saqlab qolishdir.

11-12-MAVZU: MENING MAHALLAMDA YASHASH YAXSHI

Mavzu bo‘yicha ishlash jarayonida o‘quvchilar quyidagilarni bilib oladilar:

O‘quvchilarda vatanparvarlik, g‘amxo‘rlik, o‘zaro yordam, birdamlik, atrof muhitga oqilona munosabatda bo‘lish kabi fazilatlar tarbiyalanadi.

Faol fuqarolik pozitsiyalari rivojlantiriladi.

O‘quvchilarning nutq madaniyati rivojlanadi.

Darsni o‘quvchilar faollashtiruvchi savollar bilan boshlash tavsiya etiladi. Jumladan, *Siz mahallangiz nomini bilasizmi? Mahallangiz sizga yoqadimi? Mahallangiz guzari qayerda joylashganini bilasizmi?*

Darslik bilan ishlash: 30-31-betda berilgan rasmni og‘zaki tasvirlash. Har bir o‘quvchidan bir-birlarini takrorlamagan holda fikr bildirish so‘raladi. Qisqa aniq va lo‘nda.

O‘qituvchi mahalla, mahalladosh, qo‘shniga g‘amxo‘rlik, o‘zaro yordam, birdamlik, tabiatga g‘amxo‘rlik kabi so‘zlarning mohiyatiga alohida to‘xtalib o‘tishi zarur.

Uyga vazifa: Har bir o‘quvchi o‘zinig mahallasining nomini bilib kelishi va ma’lumotlar to‘plashi yuzasidan topshiriq berish mumkin.

Ikkinchi dars uchun topshiriqlar quyidagicha bo‘lishi mumkin. *Siz mahallangiz nomini bilasizmi? Mahallangiz sizga yoqadimi?*

O‘tilgan mavzuni mustahkamlash:
“ZAFAR ARKI” usuli

Bunda o‘quvchilar o‘qituvchi tomonidan berilgan savol va topshiriqlarga javob berishib, o‘z bilimlarini sinagan holda bosqichma bosqich o‘tadilar va “Zafar arki” tomon yo‘l oladilar. Bunda o‘quvchilarning mavzu yuzasidan savol va topshiriqlari asosida bilimi mustahkamlanib boradi.

Bilasizmi, ba’zida shunday holatlar ham yuz beradi?

Siz bunday ish qilmasangiz kerak-a?

Rasmga qarab voqeani izohlang.

Voqeaning oldini olish mumkinmidi?



O‘qituvchi: Bolajonlar, kelinglar, hozir sizlar bilan birga mahallalarda uchrab turadigan bir nechta holatlarni ko‘rib chiqamiz. Ya’ni men sizga vaziyatning boshlanishini o‘qib beraman, siz bu holatlarga o‘z munosabatingizni bildirib, vaziyatni davom ettiring.

(O‘quvchilar vaziyatning rasmlarda aks ettirilgan suratlar to‘plamini olishadi, guruhlarga bo‘linib, rasmlarni ketma-ketlikda joylashtiradilar va vaziyatning davomini hikoya qiladilar. O‘qituvchi har bir guruhga qo‘shimcha ravishda vaziyatlarni tushuntiradi. O‘qituvchi sinfning imkoniyatlaridan kelib chiqib, tayyorgarlik va javob berish vaqtini belgilaydi. 5 daqiqa

tayyorlanish uchun va har bir guruhning tayyorlagan hikoyasini aytib berishlari uchun 6-7 daqiqa vaqt ajratadi).

Birinchi vaziyat: Ertalab maktabga yo‘l olgan aka-ukalar uydan chiqib ketayotganlarida onasi yo‘l-yo‘lakay chiqindixonaga tashlab ketishlarini iltimos qilib xaltadagi axlatni berdi. Mahalla ko‘chasi bo‘ylab borayotgan bolalar axlat tashlaydigan konteynergacha yetib bormasdan axlatni birinchi uchragan daraxt panasiga tashladilar. Aka-ukalarning bu ishlarini ko‘rgan qo‘shnisi hayron qoldi va ...

Sizningcha, bundan keyin nima sodir bo‘ldi? *(Ta’riflangan vaziyatning tasviri beriladi, o‘quvchilar o‘zlari vaziyatni izohlaydilar va uni hal qilish yo‘llarini beradilar).*

Ikkinchi vaziyat: Quvnoqligi uchun ota-onasi Sevinch deb chaqiradigan qiz sayr qilish uchun uydan chiqdi. Uydan chiqib ketayotib u qo‘liga banan oldi va yo‘lda bananni yeb, po‘chog‘ini maxsus chiqindi idishiga emas, yo‘lakka tashladi...

Vazifa: Quyidagi so‘zlardan bunday harakatning oqibatlari nimaga olib kelishi mumkinligi haqida qisqa hikoya tuzing, yoki hikoyani davom ettiring. Foydalanish uchun so‘zlar: ona, oyoq, jarohat, xafachilik.

Uchinchi vaziyat: Ko‘chada o‘yinga berilib ketgan bolalar yonlariga kelib, ularni kuzatib turgan katta yoshli kishining turganligini sezmagan holda og‘zilaridan chiqayotgan gaplarga e’tibor bermasdan o‘ynashda davom etardilar. Shu paytda bolalardan biri dadasi yonlariga kelib, ularni kuzatib turganligini ko‘rib qoldi ....

Vazifa: Hikoyani davom ettiring.

Guruh ishlash davomida o‘quvchilar o‘rnidan turib, sinfdoshlari atrofida to‘planishadi, vaziyatlarni muhokama qilishadi. O‘qituvchi guruhlar orasida yuradi va kerak bo‘lganda o‘quvchilarga yordam beradi. Axir, bu o‘quvchining birinchi tajribasi!

- O‘quvchilarning chiqishlaridan so‘ng o‘qituvchi darsni umumlashtiradi va quyidagi savollarni beradi.
- Mahallada qanday qoidalar bor?
- “O‘zaro yordam” va “hamkorlik” nima?
- Hech kim tozalikka rioya qilmasa, mahalla qanday ko‘rinishga kelib qoladi?
- Mahallada salom berish muhimmi?
- Mahallada qanday salomlashiladi, ko‘rsatib bera olasizmi va hokazo.

O‘qituvchining xulosasi: Mahalla biz yashaydigan joy. Mahalla ko‘p qavatli va xususiy uylardan iborat. Mahalla bir yoki bir nechta ko‘-cha, mikrorayon yoki massivlardan tashkil topgan bo‘ladi. Har bir mahallada, birinchi navbatda, “qo‘shniga g‘amxo‘rlik”, “o‘zaro yordam”, “birdamlik”, “tabiatga g‘amxo‘rlik” kabi qadriyatlar mavjud. Har bir mahalla o‘z nomiga ega: masalan, Humo, Sebzor, O‘rikzor va boshqalar…

Uyga vazifa:
Kattalar yordami bilan “Men o‘z mahallam uchun nima qila olaman” mavzusida og‘zaki hikoya tuzish.

O‘qituvchiga tavsiya: uyga beriladigan va-zifa kattalar yordamida har bir o‘quvchining o‘z mahallasiga qo‘shadigan hissasi bo‘yicha hikoya tuzishini aytilishi ham mumkin.

13-MAVZU: NOTANISH KISHI KIM?

Mavzu bo‘yicha ishlash jarayonida o‘quvchilarda notanish kishilar bilan qanday muloqot qilish ko‘nikmalari shakllanadi. Hushyor va e’tiborli bo‘lishning zarurligini anglaydilar.

O‘qituvchi sinfni uch guruhga bo‘lishi ham mumkin. Har bir guruhga 34-betdagi voqealarni o‘qib beradi. Voqealar yuzasidan savol bilan murojaat qiladi.

I guruh uchun savollar

Notanish kishilar konfet yoki shunga o‘xshash narsalar berishsa nima qilish kerak? nima uchun?

II guruh uchun savollar

Notanish odamlar bilan mashinada birga sayr qilish mumkinmI?

III guruh uchun savollar

Notanish odamlarga uyi haqida, oilasi haqida ma’lumot berish mumkinmi? nima uchun?

Barcha guruhlar uchun umumiy savol.
Siz nima qilgan bo‘lardingiz, nima uchun? Hikoyalarni davom ettiring.

O‘qituvchi har bir jamoaga bir vaqtda yoki birin-ketin u yoki bu topshiriqni bajarishni taklif etadi. Yuqorida taxminiy topshiriqlar berilgan. Bolalarga ikki jamoa o‘zaro bellashishi, har bir to‘g‘ri bajarilgan shart yoki to‘g‘ri javob uchun jamoa bittadan fishka bilan taqdirlanishi tushuntiriladi.

Tanlov yakunida har bir jamoaning to‘plagan fishkalari soniga ko‘ra g‘olib jamoa aniqlanadi.

Doimo yodingizda bo‘lsin:

1. Agar notanish odam sizni olib ketmoqchi bo‘lsa, bor kuchingiz bilan boshqalarni yordamga chaqiring. Barcha imkoniyatlar bilan qarshilik qiling. Esingizdami “Uyda yolg‘iz” kinosi?

2. Ko‘chada qoldirib ketilgan qutichalar, xaltachalar haqida kattalarga yoki ichki ishlar xodimlariga xabar bering. Aslo o‘zingiz ushlab ko‘rmang.

O‘qituvchi darsning yakunida quyidagicha xulosa qilishi mumkin:

Bolalar, darsni umumlashtiramiz. Qani bolajonlar, ayting-chi, ko‘chada qoldirib ketilgan qutichalar, xaltachalar haqida kimlarga xabar berish kerak ekan. Bizning xavfsizligimizga, mahallangiz, ko‘changiz va yurtingiz xavfsizligiga sizning hissangiz qanday bo‘lishi kerak?

Uyga vazifa:

Kattalar yordamida “Men xavfsizlik tarafdoriman” mavzusida hikoya tuzib keling.

Qanday vaziyatda 101,102, 103, 104, 1050 raqamlariga qo‘ng‘iroq qilish kerak? Qanday murojaat qilinadi?

14-15-MAVZU: XAVFLI VAZIYATLARDA HARAKAT QILISH

Mavzu bo‘yicha ishlash jarayonida o‘quvchilar quyidagilarni bilib oladilar:

- kundalik hayotda duch kelishi mumkin bo‘lgan favqulodda holatlarda qanday yo‘l tutish kerakligi haqidagi bilim va tushunchalarga ega bo‘lishadi.

Darsning birinchi qismi nazariy bilimlarni o‘rganish bo‘lsa, ikkinchi qismi amaliy vaziyatlar bilan bo‘g‘lab tashkil qilinadi.

O‘qituvchi o‘quvchilarni darsga jalb qilish, sinfda ishchi muhitini yaratishi kerak. Buning uchun o‘quvchilaga bir nechta savol bilan murojaat qilshini taklif qilamiz.

Favqulodda vaziyatlarda harakat qilishni bilasizlarmi?

Xavfli vaziyat deganda nimani tushunasiz?

darslikning 37-38-betlaridagi rasmlarga diqqat qiling. Qanday favqulodda holatlar yuz bergan?

Yuqoridagi suratlarda tasvirlangan favqulloddagi vaziyatlarda siz qanday harakat qilasiz?

O‘qituvchi o‘quvchilarga xavfli vaziyatlarda harakat qilish yo‘nalishi chizilgan xarita(evakuatsiya rejasi)ni ko‘rsatadi. Undagi belgilar haqida ma’lumot beradi.

Darsga soha mutaxassislarini ham taklif qilish mumkin.

O‘qituvchi o‘quvchilarni javoblarini umumlashtiradi. Favqulodda holatlarda yo‘l ko‘rsatkichlari orqali tartibli harakat qilish kerak.

Faqat o‘ng tomon bilan yurish kerak. Bir-biringizga xalaqit bermang. Kuchli shamol vaqtida ko‘chaga chiqmang. Ko‘chada bo‘lsangiz pana joyga o‘ting. Sel kelganda yoki suv toshqini vaqtida yuqori va xavfsiz joyga o‘ting. Mavzuga oid rasmlani namoyish qiladi. Mavzuda berilgan rasmlardan foydalanish mumkin.

Darsning ikkinchi qismida amaliy mashg‘ulot o‘tkaziladi.

Amaliy mashg‘ulot maktabning evokuatsiya rejasi bo‘ylab amalga oshiriladi. Avval o‘qituvchi bolalar bilan birgalikda harakat qiladi. keyin ularning o‘zlarini mustaqil harakat qilishlarini ham so‘rash mumkin. Bu jarayonda o‘qituvchi jismoniy tarbiya yoki ChQBT o‘qituvchisi bilan hamkorlik qilishi mumkin.

Uyga vazifa:
Turli favqulodda vaziyatlar tasvirlangan rasmlardan birini mashq daftarga chizib kelish.

O‘qituvchiga tavsiya: o‘quvchilar uchun uyga beriladigan vazifa qatorlarga bo‘lib berish, guruhga taqsimlagan holda yoki bir-ikkitasini ajratib berish mumkin.

BOB YAKUNI BO‘YICHA O‘QUVCHILARGA UMUMLASHTIRUVCHI DARS BERILADI

NAZORAT DARSI:

O‘qituvchi o‘tilgan mavzular yuzasidan o‘quvchilar tomonidan tuzib kelingan boshqotirmalar, “Marra sari olg‘a” degan mavzular bo‘yicha savollardan tashkil topgan o‘yinni amalga oshiradi.

Bilim cho‘qqilarini zabt etish uchun marra sari olg‘a!

“Zukko o‘quvchi” o‘yini (darslikning 39-41-betlari). Bu o‘yinda bir-nechta o‘quvchi ishtirok etishi mumkin.Qura tashlab kim birinchi, ikkinchi, uchinchi va b. ekanligini aniqlang.

O‘yinning qoidalari: bitta toshni o‘rtaga tashlaysiz. Toshlarda tushgan raqamlarga qarab yuriladi.

Birinchi bo‘lib tojni qo‘lga kiritgan o‘quvchi g‘olib hisoblanadi. Ikkinchi bo‘lib o‘yinni boshlagan ikkinchi, uchinchi bo‘lib boshlagan uchinchi bo‘lib kelsa, o‘yin durang bo‘ladi.

Har bir bekatda o‘qituvchining savoliga javob berish kerak bo‘ladi. Ko‘rsatkich bo‘ylab yurish kerak yoki ortga qaytish kerak.

Dars yakunlarini chiqarish.

O‘quvchilar marra sari olg‘a o‘yinini o‘ynash natijasida savollarga javob berishadi; mavzuning xulosasini chiqarishadi; faol o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

Uyga vazifa:

Yuqoridagi singari topshiriq o‘yinlardan birortasini kattalar yordamida uyda bajarib keling.

16-MAVZU: SEHRLI SO‘ZLAR

Dars davomida o‘quvchilarning so‘zlashuv odobi va ularning tengdoshlari, o‘zidan kattalar bilan muloqotga kirishishda ishlatadigan sehrli so‘zlari haqida ma’lumot berish maqsadga muvofiqdir.



Mavzu bo‘yicha ishlash jarayonida o‘quvchilar quyidagilarni bilib oladilar:

- o‘quvchilarda so‘zlashuv odobi va muloqotga kirishish bo‘yicha bilim va tushunchalar shakllanadi:
- sehrli so‘zlarni o‘z o‘rnida ishlata olishga o‘rganadilar.

Dars asosan amaliy mashg‘ulotlarga boy. Dars jarayonidagi holatlar asosan o‘quvchilarning hayotidan olingan voqealarga asoslangan.

Darsning boshida o‘qituvchi “Sehrli so‘zlar” haqidagi hikoyani o‘qib beradi.


42-43-betlardagi rasmlar asosida “sehrli so‘zlar”ni ishlatib gap tuzish topshirig‘i beriladi.

1. Oila a’zolaringizga qanday sehrli so‘zlar ishlatasiz?

2. Ularga qangay murojaat qilasiz?

3. Har bir oila a’zolaringizga murojaat qilishingizda “jon” qo‘shimchasini qo‘shib ishlatib ko‘ring va bunga odatlaning.

Masalan: “Oyi+jon” Faqat OYIJON so‘zi darslikda berilgan bo‘ladi. O‘qituvchi mazkur metodika orqali o‘quvchilarning oila a’zolari va boshqa qarindoshlariga “jon” so‘zini qo‘shib ishlatilishini baholab, nazorat qilib boradi.



Uyga vazifa:

1. Siz qanday sehrli so‘zlarni bilasiz va ularni qayerda ishlatasiz?

2. Quyidagi so‘zlarni rasmlar bilan bog‘lang?

A) Assalomu alaykum.
B) Rahmat.
C) Iltimos.
D) Kechirasiz. Uzr. Mumkinmi?
E) Marhamat.
F) Labbay. Yaxshi boring.
J) Oq yo‘l.
K) Xafa bo‘lmang.
L) Sog‘ayib keting.

O‘qituvchiga tavsiya: o‘quvchilar uchun uyga beriladigan vazifani kattalar yordamida yodlashni va qo‘shimcha ravishda qaysi so‘zni qaysi so‘zdan keyin kelishini ham kattalardan so‘rab, yozib kelishini aytishi mumkin.

17-MAVZU: QALB OYNASI

Mavzu bo‘yicha ishlash jarayonida o‘quvchilar yaxshi inson qanday fe’l-atvor va xususiyatga ega bo‘lishi kerakligini, buning uchun o‘zida yaxshi fazilatlarni shakllantirishi lozimligini anglaydilar. O‘quvchilarga odobli bo‘lish darslikning 44-betida berilgan “Qalb oynasi” hikoyasi asosida qanday xislatlarga ega bo‘lish o‘rgatiladi. Mazkur betda berilgan yuz ifodalari bo‘yicha savollar mavzuni mustahkamlashga xizmat qiladi.

1. Siz ham insonning yuziga qarab uning qalbini ko‘ra olasizmi?

2. Rasmlarga qarab o‘zingizga yaqin bo‘lgan qiyofani topishga harakat qiling.

Tavsiya qilinadigan metod. “ZAFAR ARKI”

Bunda o‘quvchilar o‘qituvchi tomonidan berilgan savol va topshiriqlarga javob berishib, o‘z bilimlarini sinagan holda bosqichma-bosqich o‘tadilar va “Zafar arki” tomon yo‘l oladilar. Bunda o‘quvchilarning mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar asosida bilimi mustahkamlanib boradi. Savollarni sinf salohiyatidan kelib chiqib o‘zgartirish mumkin. Masalan:

1. Odobli bola qanday xislatlarga ega bo‘lishi kerak?
2. Siz o‘zingizni odobli deya olasizmi, nima uchun?
3. Odobli bola uyda, maktabda, ko‘chada o‘zini qanday tutadi?

Dars davomida o‘quvchilarga odobli bo‘lish uchun qanday xislatlarga ega bo‘lish o‘rgatiladi.

Uyga vazifa: Men namunali bola bo‘lishim uchun ... fikrni davom ettirib kattalar ko‘magida kichik matn tuzib keling.

O‘qituvchiga tavsiya: o‘quvchilar uchun uyga beriladigan vazifani kattalar yordamida hikoyacha tarzida yoki oddiy savol-javob tarzida bajarib kelishini aytish mumkin.

18-19-MAVZU: TELEFONDAN FOYDALANISH QOIDALARI

Darsning asosiy bosqishida o‘qituvchi telefon haqidagi o‘quvchilarning bilimini aniqlashi kerak. Buning uchun savol-javob metodidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Masalan: Telefon haqida nimalarni bilasiz? qo‘l telefonlaridan foydalanish qoidalari bormi? Telefondan qanday foydalanish kerak? nima uchun?

O‘qituvchi o‘quvchilarni javoblarini eshitib, ularning e’tiborini 45-betda berilgan matnga qaratadi.

Matn asosida suhbat o‘tkazish ham mumkin. Matnga sarlavha qo‘yishni so‘rash o‘quvchilarni matnni diqqat bilan eshitib, anglab olishlariga yordam beradi.

Matn yuzasidan Siz nima deb o‘ylaysiz, yo‘l hodisasini oldini olish mumknmidi? Bilmasvoyning harakatlariga baho bering. Siz katta yo‘llarda telefoningizdan qanday foydalanasiz? Mobiljon nimadan ogohlantirayapti? kabi savollarni berish mumkin.

O‘qituvchi har bir o‘quvchining javoblarini diqqat bilan tinglashi va uyga vazifa sifatida telefondan foydalanish qoidalarini bilib kelishlarini so‘rashi mumkin.

Ikkinchi dars (amaliy mashg‘ulot)da o‘quvchilar telefondan foydalanish qoidalari asosida rollarga bo‘linadilar va bir birlari bilan muloqot qiladilar. “Kim chiroyli gapiradi?” dialogini tuzishlari ham mumkin. darsni Mobiljonning 47-betda bildirgan fikri bilan yakunlash mumkin.

20-21-MAVZU: TASHQI KO‘RINISH ODOBI

Darsni tashkil qilishda Keys stadi metodidan foydalanish tavsiya etiladi. darslikning 48-49-betida berilgan Vaziraning maktabga kelishi va hayvonot bog‘idagi hikoyalardan keys sifatida foydalanish mumkin.

O‘quvchilardan hikoyani davom ettirishni, yoki ustoz va sinfdoshlarining hayron bo‘lishlari sabablarini so‘rash mumkin. Bir necha o‘quvchilar fikrlari tinglanadi.

Darsni o‘tishda sinfni ikkita katta guruhga bo‘lish ham mumkin.

“Klaster” usuli. O‘qituvchi har bir parta uchun kartochka tayyorlaydi (ular taxminan 5 ta) va har bir kartochkada doira shaklidagi “klaster” mashg‘uloti topshiriqlari o‘rin olgan bo‘lishi kerak. Har bir parta o‘quvchilari ketma-ket javob variant-larini aytadilar.

Darsda davomida o‘quvchilarni faolligini yanada oshirish uchun va darsning mohiyati kiyinish madaniyati bilan bog‘lanishi kerak.

Vaziraning bu ko‘rinishi tahlil qilinadi.

Vaziraning kiyimi sizga yoqdimi?

Vazira maktabga bu libosda kelib, to‘g‘ri qildimi? nima uchun?

Taqinchoqlarni qayerga taqish kerak?

Sizning yoshingizda qanaqa taqinchoq taqish mumkin?

Taqinchoqlarning inson hayotiga xavfi bormi, nima uchun?

To‘nag‘ichlar sizga qanday xavf solishi mumkin? Tishi o‘tkir taroqlarni nima uchun maktabga taqib kelish mumkin emas?

Vaziraning kiyinishi yuzasidan bildirilgan fikrlar o‘qituvchi tomonidan qayd etib boriladi.

Ikkinchi darsda hayvonot bog‘i hikoyasi haqida suhbat o‘tkazish mumkin.

Hayvonot bog‘iga aylangani bordik. Bitta qulog‘iga zirak taqib olgan bola e’tiborimni tortdi. Uning bo‘ynida qalin zanjir ham bor ekan. Men buvijonimga savol nazari bilan qaradim.

– Bu uning tarbiyasi, – javob berdilar buvijonim. *Bunday kiyinish sizga ma’qulmi?*

Kiyinish madaniyati haqida suhbat o‘tkaziladi. Zamonaviy rasmlardan foydalanish mumkin. Modalar ko‘rgazmasini ham tashkil qilish mumkin.

O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

1) Qayerga, qaysi soch turmagida borish kerak?

2) Siz maktabga sochingizni qanday turmaklaysiz, nima uchun?

3) Suratlardagi soch turmaklari bilan qayerlarga borishni taklif qilasiz?

Topshiriq yakunida o‘quvchilar javob beradilar va o‘z fikrlarini izohlaydilar.

O‘qituvchi tomonidan tinglanadi va o‘quvchilar javoblari asosida to‘g‘ri kiyinish qoidalariga yo‘naltiriladi. Darsning yakunida Doimo orasta kiyining va xushmuomala bo‘ling.

Haqiqiy go‘zallik qalbda bo‘ladi. Qalb esa insonning ichki madaniyati va odobini belgilashi haqida xulosa beriladi.

Uyga vazifa: toqqa, istirohat bog‘iga, teatrga, muzeyga, mehmonga, to‘yga borganda kiyiladigan kiyimlarni farqlab, o‘rganib kelish (kattalar bilan).

Qo‘shimcha o‘qish uchun *(O‘quvchilarga o‘qituvchi tomonidan qisqa ma’lumot o‘qib berish yoki so‘zlab berish tavsiya etiladi)*:

Kiyimlar haqida nimalarni bilamiz?

Kiyim – deb insonning ustini, badanni yopib turuvchi har qanday mato shaklidagi buyum hisoblanadi. Kiyimlar tikiladi, to‘qiladi, yoki boshqa usullar bilan tayyorlanadi. Kiyim kiyishdan maqsad avvalo tanani atrof-muhit ta’siri: issiq-sovuq, shamol, chang-to‘zon, quyosh nurlari, yog‘in va boshqalardan asrashdir.

Kiyim turiga ko‘ra – ustki kiyim, ichki kiyim, bosh kiyimlar, oyoq kiyimlar (poyabzal); vazifasiga ko‘ra – kundalik, uyda, dam olish paytida, bayram va to‘y marosim-tantanalarda kiyiladigan kiyimlar, ish kiyim, sport kiyim, rasmiy kiyim (forma)lar, maxsus kiyimlarga bo‘linadi; ayollar, erkaklar va bolalar kiyimlariga ajratiladi.

Kundalik kiyim, odatda, xalqning madaniyati, kishining didiga mos bo‘lib, turli modada, turli xil matolardan tikiladi.

Dam olish paytida kiyiladigan kiyim yumshoq va mayin matodan, erkin harakat uchun qulay qilib tikiladi. Bayram, marosim kiyimlari milliy uslubda, qimmatbaho matolardan tayyorlanadi, turli bezaklar (kashta, munchoq) bilan boyitiladi.

Ish kiyimi oddiy matolardan mehnat jarayoniga mos qilib tikiladi (masalan, o‘t o‘chiruvchining ish kiyimi o‘tga chidamli brezentdan, baliqchilarning kiyimi suv o‘tkazmaydigan matodan tikiladi, tibbiyot xodimi, sartarosh, oshpazlarning ish kiyimi asosan, oq xalatdan iborat). Sport

kiyim jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanish uchun qulay qilib tikiladi.

Rasmiy kiyim (forma), harbiy kiyim, ichki ishlar xodimi, aloqachi va rasmiy kishilarning maxsus nizomda belgilangan kiyimlari. Biz uchun muhim bo‘lgan bolalar kiyimi rang-barang pishiq matodan qulay qilib tikiladi. Kiyim ixcham, iqlim va faslga, yoshga va o‘g‘il va qiz bolaga moslashtirilgan, eng muhimi, qulay bo‘lishi, kishiga yarashib turishi lozim. Kiyim tikish uchun oldin tabiiy (paxta, jun, ipak) yoki sun’iy (sintetik) matolardan tanlanadi, tikuvchilar uyda, atelyelar va fabrikalarda kiyim tikishadi. Buning uchun avval matoni bichib olish kerak. Bu ishni bichiqchi bajaradi. Unga modelyer rassom kiyim rasmi (modeli)ni chizib beradi.

Kiyim eng qadimgi ixtirolardan bo‘lib, geografik muhit, xo‘jalik shakli, ijtimoiy munosabatlar, madaniyat, etnik qatlamlarga bog‘liq holda taraqqiy etgan. Qadimgi davr yodgorliklari orasida terini ishlaydigan tosh va tikadigan suyak ignalar topilgan. Kiyim uchun matodan tashqari barglar, o‘tlar, daraxt po‘stloqlari ham xomashyo vazifasini o‘tagan.

Ibtidoiy odamlar hayvon terilari, daraxt po‘stloqlari va barglarini suyak va hayvon shoxidan ishlangan “ignalar” bilan shunchaki chatib, badanlariga “ilib” olishgan. Bora-bora vaqtlar o‘tib, ip yigirish va mato to‘qish san’atini o‘zlashtirgan inson kiyim tikishda dastlab yovvoyi o‘simlik tolalaridan foydalangan, chorvachilik va dehqonchilikning rivojlanishi mato tayyorlash uchun uy hayvonlarining juni va madaniy o‘simliklarning tolalaridan foydalanish imkonini

bergan. Keyinchalik kiyimlar yopinchiq (plashch), ko‘ylak, kofta kabi, bel bog‘lamlari ishton, yubka, fartuk kabi turli xil shakllarga ega bo‘ldi; shippak yoki oyoqni o‘rab turgan bir parcha hayvon terisi eng sodda qadimgi poyabzal turi bo‘lgan, shuningdek, poyabzal uchun daraxt po‘stlog‘i va daraxtdan ham foydalanilgan.

Dunyoda dastlabki kiyim Qadimgi Misr kiyimlaridir. Misol uchun, Qadimgi Misrda erkaklar (bellariga mato yoki teri bog‘lagan) va ayollar (bog‘ichli to‘g‘ri ko‘ylak) kiyimlarida burmalar qo‘llanilgan. Turli rangdagi nozik matodan tayyorlanib kashtalar bilan bezatilgan kiyimni, odatda, hukmron tabaqa vakillari kiygan, qullar dag‘al mato yoki teridan tayyorlangan kiyim kiygan. Yana bir misol, Qadimgi Rim kiyimi ham yunonlarniki kabi burmali bo‘lgan. Xalqlar o‘rtasida iqtisodiy aloqalarning kengayishi natijasida kiyim bichimlari bir mamlakatdan ikkinchisiga tarqalgan.

O‘zbekiston hududida mahalliy kiyim qadimdan iqlim, turmush sharoitlari va urug‘-qabila an’analari asosida shakllangan. XIX asr kiyimlari (to‘n, ko‘ylak, yaktak, chopon va b.) keng, uzun, yaxlit bichimi, odam qomatini berkitib, erkin to‘kilib turishi kabi qadimiy xususiyatlarni saqlagan. Qishki va yozgi, erkak, ayol va bolalar kiyimlari bir xilligi, shakli va bichimi yaqinligi bilan ajralib turadi: oq yoki malla bo‘zdan ko‘ylak, qalami yaktak yoki to‘n, chopon, do‘ppi o‘zbek erkaklari uchun, ayollar uchun keng ko‘ylak, uzun lozim, nimcha, kaltacha asosiy milliy kiyim hisoblangan.

uz.wikipedia.org internet ma’lumotlari asosida

22-23-MAVZU: YAXSHI VA YOMON ODATLAR

Dars davomida o‘quvchilar bilan yaxshi va yomon odatlar haqida suhbat qurish tavsiya etiladi. Mavzuga doir tushunchalarga izoh berish orqali o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini kengaytiriladi. yaxshi odatlarni o‘zlashtirib qanday marralarga erishish o‘rgatiladi.

Birinchi darsda darslikning 51-betida berilgan yo‘ldagi voqea asosida suhbat quriladi. Hikoya o‘qib beriladi. Hikoya asosida o‘quvchilarga savollar beriladi.

1. Hikoya qanday tugashi mumkin edi?

2. Hikoyaga nima deb sarlavha qo‘yish mumkin?

3. Siz nima deb o‘ylaysiz, oldindagi mashinadagi yo‘lovchilar to‘g‘ri ish qilganmi?

4. Yurib ketayotgan mashinaning oynasidan turli narsalarni tashlash mumkinmi?

5. Bu yaxshi odatmi yoki yomon, nima uchun? Yana qanday yaxshi odatlarni bilasiz?

6. Mazkur dars yuzasidan o‘quvchilarga chiqindilarni qayerga va qay tartibda tashlash mumkin? degan savolga javob topib kelishlari so‘raladi.

Ikkinchi dars amaliy mashg‘ulot. O‘qituvchi darslikning 52-betida berilgan rasmlar asosida topshiriq tayyorlashi tavsiya etiladi. Doska oldiga kartondan yasalgan beshta idish qo‘yiladi.

O‘quvchilarga turli chiqindilarning rasmini chizishlarini taklif qilish mumkin. So‘ng har bir o‘quvchi belgilangan idishga rasmlarini joylashtiradilar. Bu vazifani guruhlarga bo‘linib amalga oshirish ham mumkin.

24-MAVZU: SOY BO‘YIDA

Dars davomida o‘quvchilar bilan yaxshi va yomon odatlar haqida suhbat davom ettiriladi. Atrof muhitga oqilona munosabatda bo‘lish o‘rgatiladi. Shuningdek, yozgi ta’til kunlarida bolalarda ehtiyotkor bo‘lish, kattalarning gaplariga quloq solish kabi ko‘nikmalar shakllantiriladi.

O‘qituvchi bolalarga Soy bo‘yida hikoyasini diqqat bilan o‘qib chiqishlarini so‘rashi mumkin. Hikoyani o‘qish uchun ma’lum vaqtni belgilash, o‘quvchilarni o‘qish tezligini oshirishga yordam beradi.

Hikoya o‘qib bo‘linganidan keyin o‘qituvchi, “Suvni ich chashmani bulg‘ama!” hikmati bilan qanday aloqasi bor deb savol berishi mumkin.

Kattalarning gapiga quloq solmaslik yana qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?

Siz ota-onangiz yoki boshqa sizdan katta bo‘lgan insonlarning gaplariga quloq solmagan vaqtingiz bo‘lganmi?

O‘quvchilarga “Nonni bosgan qiz.” multfilmini namoyish qilish mumkin. Multfilmdagi va darslikning 54-betidagi rasmlar asosida quyidagi jadvalga yaxshi va yomon odatlarni yozishni taklif qilish kerak.

Yaxshi odatlar	Yomon odatlar

Uyga vazifa:
Yangi mavzuni darslik bo‘yicha o‘qib, matndagi atamalarni izohi bilan daftarga ko‘chirib yozish.

25-26-MAVZU:
SOG‘ TANDA – SOG‘LOM AQL

Dars davomida o‘quvchilarga ko‘cha-ko‘yda, o‘qishda va uyda o‘zini qanday tutishlari, doim o‘zini ozoda tutib yurishi bo‘yicha ko‘nikma va tushunchalar beriladi. Ozodalik, saranjomlik, jasurlik, gigiyena talablariga doimo rioya qilish zarurligi o‘rgatiladi.

Birinchi darsda “So‘g‘liging o‘z qo‘lingda” hikoyasi asosida suhbat o‘tkaziladi.

Darsni samaraliroq tashkil etish uchun darsga maktab shifokorini va sohaga oid boshqa mutaxassislarini, ota-onalarni ham taklif qilish mumkin.

Dars davomida kamqonlikni oldini olish, kamqonlikni keltirib chiqaradigan sabablar aytilishi kerak.

Bu haqida o‘quvchilarga eslatma tayyorlash ham maqsadga muvofiqdir.

Yangi mavzuni **“Taqqoslash”** usuli yordamida aniqlash. O‘quvchilarga quyidagicha tayyorlangan kartochkalar tarqatiladi.

Sog‘lig‘ingizga kim mas’ul

O‘zim	Ota-onam
Akam va opam	Bobom va buvim
Sinfoshlarim va ustozim	???????

Ikkinchi dars amaliy mashg‘ulot. Birinchi dars xulosalaridan so‘ng kamqonlik nimalarga sabab bo‘lishi o‘quvchilardan so‘raladi. Fikrlar ketma-ketligi metodidan foydalanish mumkin.

Masalan:

1. Xotiraning pasayishi – nimalarga sabab bo‘ladi? (taxminiy javoblar: uy vazifalar esdan chiqib qoladi. Uy vazifalar bajarilmasa, ikki baho oladi. Ikki baho olsa ota-onasi xafa bo‘ladi...)

2. *Boshqa kasalliklarga moyillikning kuchayishi qanday oqibatlarga olib keladi?* (taxminiy javoblar: kasal bo‘lib qolsa, maktabga borolmaydi. yangi mavzulardan qolib ketadi...)

3. Nimjonlik va tez charchab qolish nimalarga olib keladi? (taxminiy javoblar: dars vaqtida uxlab qoladi. darslarni tushunmaydi. uy vazifalarini to‘liq bajara olmaydi...)

O‘qituvchi o‘quvchilardan kamqonlikning oldini olish qoidalariga taklif berishlarini so‘rashi mumkin. O‘quvchilarning bergan javoblarini darslikning 56-betidagi tartib bilan solishtirish mumkin.

O‘qituvchi o‘quvchilarning javoblarini to‘ldirishi lozim. Masalan, kun tartibiga rioya qilish deganda nimalar nazarda tutiladi? Bu savol bilan avvalroq o‘tilgan mavzu takrorlanadi va mustahkamlanadi.

To‘g‘ri ovqatlanish – yuzasidan tushunchalar berish kerak. O‘quvchilarning salomatligi uchun qanday ovqatlar zarurligi haqida suhbat quriladi.

Darsni mustahkamlash uchun o‘quvchilarga insonning salomatligi uchun zarur bo‘lgan mahsulotlarning rasmini chizishni taklif qilsa bo‘ladi.

Bu darsda har bir mahsulotning foydali tomonlarini ochib beruchi she'rlar va maqollardan ham foydalansa bo'ladi.

O'tilgan mavzuni mustahkamlash. Jadvalda berilgan qoidalar takrorlanadi. O'qituvchi tomonidan tahlil qilib beriladi va izohlanadi.

Dars yakunlarini chiqarish:

O'qituvchi o'quvchilarning yangi o'tilgan mavzu bo'yicha berilgan javoblarini baholaydi. O'quvchilarda yangi mavzu bo'yicha paydo bo'lgan savollarga javob beradi.

Uyga vazifa: Darslikda berilgan rasmlarga diqqat qiling, daftaringizga quyidagi jadvalni chizib, yuqoridagi rasmlar asosida uni to'ldiring.

Nonushta	
Tushlik	
Kechki ovqat	





O‘qituvchi boshqa rasmlardan ham foydalanishi mumkin. (o‘qituvchi mavzuga mos rasmlar namoyish etadi).

O‘quvchilarning javoblarini 59-betda berilgan qoidalar bilan solishtiriladi.

Topshiriq: matnni davom ettiring.

Charos buvisi va bobosini juda sog‘ingan edi. Onasidan ularning kelayotganligini eshitib, xursand bo‘ldi ... matn davom ettiriladi.

O‘quvchilar fikri tinglanadi va ular tahlil qilinadi.

O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.
“KIM CHAQQON TANLOVI” usuli.
Tayyorgarlik davri:

Bolalar mashg‘ulotga kirishishgacha bo‘lgan davrda ikki guruhga bo‘linib, o‘z guruhlarini nomlaydilar, o‘qituvchisi bilan birgalikda kerakli atribut tayyorlaydilar va sardorlarni saylaydilar.

Topshiriq mazmuni	1-guruh	2-guruh
1-savol	!!!	!!!
2-savol	!!!	!!!
	!!!	!!!

1. Dasturxon atrofida o‘tirishdan oldin birinchi qiladigan ishingiz qaysi?

2. Dasturxonga qo‘yilgan taomni tanovul qilishdan oldin qanday so‘z aytiladi?

3. Nima uchun katta yoshdagilar sizga ovqatlanishdan oldin “Tez-tez va pala-partish ovqatlanishdan tiyilish kerak, bu yaxshilikka olib kelmaydi”, degan gapni aytib o‘tishadi!

4. Odatda, avval kattalar dasturxondagi taomni tanovul qilishni boshlab berishadi va so‘ngra kichiklar. Nega shunday bo‘ladi?

Darsga yakunlarini chiqarish uchun qisqa hajmli, ibratli hikoya beriladi.

Kim ko‘proq uyaldi...

Bugun dadamning gap-so‘zlaridan bilishimizcha, boshqa hududda ularning maktabda birga o‘qigan qalin o‘rtoqlari bo‘lgan ekan. Boshqa viloyatga ishga ketganligi sababli bizning uyga kelmagan va biz uchun ularning oilasi yangi kelgan mehmon edi ...

Hikoya davom ettiriladi.

Mavzu bo‘yicha ishlash jarayonida o‘quvchilar quyidagilarni bilib oladilar:

- o‘quvchilar dasturxon atrofida o‘tirish qoidalari bo‘yicha bilim va tushunchalarga ega bo‘ladilar.

Uyga vazifa:

Kattalar yordamida yuqoridagi hikoyani davom ettirish. Oshxona jihozlari rasmini chizib kelish.


27-MAVZU: DASTURXON ATROFIDA

Bu darsda o‘quvchilarda dasturxon atrofida o‘tirish qoidalari va ovqatlanish bo‘yicha ko‘nikma va tushunchalarini kengaytirish nazarda tutiladi.

“Dasrturxon atrofida” hikoyasi bilan boshlash mumkin.

Dasturxonni tuzatish bo‘yicha amaliy mashg‘ulot o‘tkaziladi.

Dasturxonga birinchi nima qo‘yiladi. Dasturxon jihozlarini qanday joylashtirish va ularning nomlanishi o‘rgatiladi.



28-MAVZU: DASTURXON ATROFIDA O‘TIRISH ODOBLARI

Dars jarayonida o‘quvchilarga dasturxon atrofida o‘tirish odobi bo‘yicha bilimlar beriladi. Umumiy ovqatlanish joylarida to‘g‘risida (umumiy qabul qilingan) dastlabki ko‘nikmalarini shakllantirish, bolalarni maktab oshxonasi, kafe, restoranda o‘zini tutish qoidalari bilan tanishtiriladi.

Mavzuni o‘qituvchi o‘quvchilarga avvalgi darslarda ta’kidlangan fikrlar, so‘zlar asosida dasturxon atrofida o‘tirish qoidalari haqida tushuntirib beradi. (O‘quvchilar bilimlariga tayanib)

O‘qituvchi o‘quvchilardan dasturxon atrofida o‘tirish odobi nima ekanligini so‘rash ham mumkin.

Avvaldan tayyorlab qo‘yilgan rasmlardan foydalanib, o‘quvchilarnig munosabatini o‘rganadi.

Masalan:






29-30-MAVZU: JAMOAT JOYLARIDA O‘ZINI TUTISH

Dars jarayonida o‘quvchilarda boshqalarga hurmat hissi rivojlantiriladi. Odob-axloq qoidalariga muvofiq xatti-harakatlarini amalga oshirish rivojlantiriladi.

Jamoat joylarida o‘zini tutish odobi o‘rgatiladi. Sinfni uchta guruhga bo‘lish tavsiya etiladi. Bu metod orqali o‘quvchilar ma’lum bir qiziqarli topshiriqlarni bajarish jarayonida hamkorlikda ishlashga, yaxshi o‘zlashtirgan bola o‘zlashtirishi sekin bo‘lgan bolalar bilan birgalikda ishlashga o‘rganadi.

Mashg‘ulot jarayonida bolalar tomonidan biror-bir vazifani bajarishda ularni kichik guruhlarga bo‘lish zarur.

Har bir guruhga darslikning 60-62-betlarida berilgan matnlarni bo‘lib beriladi.

Birinchi guruhga: *Kuzatuvchi nima degan bo‘lishi mumkin?*

Ikkinchi guruhga: *Nima deb o‘ylaysiz, hamyon qayerda qolgan bo‘lishi mumkin?*

Uchinchi guruhga: *Sotuvchinig odobi haqida qanday fikrdasiz? Mehmonga qanday munosabatda bo‘lish kerak? savollar beriladi.*

O‘qituvchi tomonidan savollar yanada to‘ldirilish mumkin. Guruhlarga jamoat joyida o‘zini tutish bilan bog‘liq rasmlar berish va muhokama qilish mumkin. Masalan.







RAXMAT








GULLARNI
BOSMANG











@ talim_obrazovaniye

MUNDARIJA

So‘zboshi 3

1-BOB. TARBIYA FANINI O‘QITISHDA INNOVATSION TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH **6**

Elektron darsliklar haqida umumiy ma’lumot 8
Tarbiya fanidan yaratilgan elektron axborot ta’lim resursi 8
O‘qituvchilar foydalanishlari uchun qo‘shimcha mediamahsulotlar 10
Tarbiya fanini o‘qitishning metodlari va ularning klassifikatsiyasi 12
Innovatsion faoliyatning asoslari 18
Interfaol metodlar 30
FSMU metodi 30
FSMU texnologiyasi 32
“Aqliy hujum” 32
“Fikriy hujum” metodi 35
“Fikrlarning shiddatli hujumi” metodi 36
“Yalpi fikriy hujum” metodi 38
Arra metodi 39
“Bumerang” texnologiyasi 40
O‘tkazish texnologiyasi 40
“Jamoada o‘qitish” metodi 47
“Nuqtai nazaring bo‘lsin” metodi 49
Tanqidiy tafakkur 50
“Hamma bir-biriga o‘rgatadi” 51
“Ikki qismli kundalik” 51
Venn diagrammasi 52
“Rasmlarni joylashtirish” metodi 57
“Skarabey” interaktiv texnologiya 58
Kubiklar 60
Didaktik o‘yinli texnologiyalar 62

@ talim_obrazovaniye

DARS TAHLILLARI VA ULARNING NATIJAVIYLIGI 65

2-BOB. NAMUNAVIY DARS ISHLANMALARI 68

1-mavzu: Vatan ishonchi 68

DARSLARNI TASHKIL QILISH YUZASIDAN TAVSIYALAR 71

2-mavzu: Salomlashish odobi 71

3-mavzu: Mening orzuyim 71

4-5-mavzu: Bilim olish sirlari 74

6-mavzu: Maktabim – gulshanim 78

7-8-mavzu: Mening sevimli ertak qahramonlarim 83

9-10-mavzu: Har narsaning o‘z o‘lchovi bor 91

11-12-mavzu: Mening mahallamda yashash yaxshi 96

13-mavzu: Notanish kishi kim? 100

14-15-mavzu: Xavfli vaziyatlarda harakat qilish ... 102

3-BOB. GO‘ZAL XULQ – INSON KO‘RKI 105

16-mavzu: Sehrli so‘zlar 105

17-mavzu: Qalb oynasi 107

18-19-mavzu: Telefondan foydalanish qoidalari ... 108

20-21-mavzu: Tashqi ko‘rinish odobi 109

22-23-mavzu: Yaxshi va yomon odatlar 114

24-mavzu: Soy bo‘yida 115

25-26-mavzu: Sog‘ tanda sog‘lom aql 116

27-mavzu: Dasturxon atrofida 121

28-mavzu: Dasturxon atrofida o‘tirish odoblari 122

29-30-mavzu: Jamoat joylarida o‘zini tutish 123

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI

Zamonov Zokir, Ismatova Nargiza,
Xolmuxamedova Nilufar.

TARBIYA

1-SINF
UCHUN O‘QUV-METODIK QO‘LLANMA

Toshkent – “Zamin Nashr” – 2020
Nashriyot litsenziyasi AI № 015 20.07.2018 y.

Muharrir – E.Egamqulov
Texnik muharrir – S.G‘ofurov
Sahifalovchi – S.Gapurova

Bosishga 05.01.2020da ruxsat etildi.
Bichimi 60x90$^{1/16}$. Arial garniturasi.
Ofset bosma usulida bosildi.
Bosma t. 16,0. Shartli b.t. 8.
Adadi 20208 nusxa. Buyurtma 000-20

“Credo Print” kitob fabrikasida chop etildi.
Toshkent shahri, Bog‘ishamol ko‘chasi, 160-uy.